

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI**  
**“FAKULTETLARARO JISMONIY MADANIYAT VA SPORT”**  
**KAFEDRASI**

**7-5JM-14guruh talabasi**

**Abdullaeva Nodira Baxodir qizi**

**Mavzu: : “Maktab o’quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o’yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o’tkazish usullari”.**

**5112000 “Jismoniy madaniyat” ixtisosligi bakalavr ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga  
qo'yildi "Fakultetlararo jismoniy  
madaniyat va sport" kafedrasini mudiri  
\_\_\_\_\_ A.K.Ibragimov  
« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018 y.

Ilmiy raxbar \_\_\_\_\_ O.A.Farmonov

Ilmiy maslahatchi \_\_\_\_\_ O'.A. Farmonov

**BUXORO - 2018**

# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Jismoniy madaniyat fakulteti

5112000 «Jismoniy madaniyat» ta'lim yo'nalishi talabasi

Abdullaeva Nodira Baxodir qizi

**O`zlashtirishi haqida**

**MA'LUMOTNOMA**

Talaba Abdullaeva Nodira Baxodir qizi Buxoro Davlat Universitetida 2014-2018 yillarda o`qish davomida o`quv rejasini to`liq bajardi va quyidagi o`zlashtirishga erishdi.

"A'LO" \_\_\_\_\_

"YAXSHI" \_\_\_\_\_

"QONIQARLI" \_\_\_\_\_

**Fakultet dekani:**

**B.B.Ma'murov**

**MA'QULLAYMAN**

**TASDIQLAYMAN**

Ilmiy rahbari: \_\_\_\_\_ O.A.Farmonov

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 y.

“Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport”  
kafedrasini mudiri: \_\_\_\_\_ A.K.Ibragimov

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 y.

BuxDU Jismoniy madaniyat fakulteti bitiruvchisi Abdullaeva Nodira Baxodir qizi

“Maktab o’quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o’yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o’tkazish usullari” mavzuidagi malakaviy bitiruv ishi ustida olib borilishi lozim bo’lgan ishlar yuzasidan

### TOPSHIRIQLAR

<b>T\r</b>	<b>Ishning mazmuni</b>	<b>Bajarilish muddati</b>	<b>Natija</b>
1.	Bitiruv malakaviy mavzuini kafedra va fakultet kengashida tasdiqlanib olish rejalarini rasmiylashtirish.	Sentyabr	Ijro etildi.
2.	Mavzu bo’yicha zaruriy ilmiy-uslubiy materiallarni o’rganish.	Sentyabr, Oktyabr, Noyabr	Ijro etildi.
3.	Maktab oromgoh rahbarlariga yozgi ta’tilda sport musobaqalarini tashkil qilish va o’tkazish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar berish.	Mart, Aprel, May	Ijro etildi.
4.	Mavzu bo’yicha ilmiy manbalarni o’rganish. Adabiyotlar bilan ishlash.	Sentyabr, Yanvar	Ijro etildi.
5.	To’plangan materiallarni sistemalashtirish	Yanvar	Ijro etildi.
6.	Malakaviy bitiruv ishining 1- bobini tayyorlash	Mart	Ijro etildi.
7.	Malakaviy bitiruv ishining 2-bobini tayyorlash va xulosalash	Aprel	Ijro etildi.
8.	Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko’chirish	May	Ijro etildi.
9.	Malakaviy bitiruv ishining borishi to’g’risida kafedraga hisobot berish.	May	Ijro etildi.
10.	Ishni ilmiy rahbar taqrizi bilan kafedraga topshirish.	May	Ijro etildi.
11.	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish.	May	Ijro etildi.
12.	Dastlabki himoya jarayonida ko’rsatilgan kamchiliklarni tuzatib oxirgi himoyaga qatnashish.		

**Bitiruvchi kurs talabasi:**

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullaeva N**

**O.A.Farmonov**

**Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti,  
“Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasining**

**\_\_\_ son yig`ilishi bayonnomasidan**

**KO`CHIRMA**

« \_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 yil

Qatnashdilar: p.f.n.dotsent, B.B.Ma`murov, dotsent  
M.J.Abdullaev, katta o`qituvchilar: S.Sh.Akramov,  
O.A.Farmonov, R.S.Baymurodov, D.Ro`ziev, B.Do`stov,  
M.G`afurova, A.K.Ibragimov, N.M.G`afurov,  
o`qituvchilar: M.K.Mahmudov, J.Murodov, Ya.Fayziev,  
A.Sattorov, R.Raxmonov, A.Yuldashev

**Kun tartibi:**

**1. 2017-2018 o`quv yili uchun bitiruv malakaviy ish mayzularini tasdiqlash.**

Yig`ilishi kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri A.K.Ibragimov qisqacha hisobot berdi va yangi o`quv yili uchun mo`ljallangan malakaviy bitiruv ishlari mavzulari ro`yxati tuzilganligini, mavzularning dolzarbligini, takrorlanmaganligini kafedrada tuzilgan maxsus ishchi guruh tomonidan tekshirib chiqilganligini qayt etdi. Shundan keyin bitiruv malakaviy ishlari ro`yxati yigilish kotibi tomonidan o`qib berildi.

Bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tasdiqlash bo`yicha qo`shimcha so`zga chiquvchilar yo`q.

Ko`rilgan masala bo`yicha quyidagicha

**QAROR QILINDI:**

1. Jismoniy madaniyat fakulteti 7-5JM-14guruh talabasi Abdullaeva Nodira Baxodir qiziga bitiruv malakaviy ishi yozishga ruxsat etilsin.
2. “Maktab o`quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o`yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o`tkazish usullari” bitiruv malakaviy ishi mavzusi etib tasdiqlansin.
3. Katta o`qituvchi O.A.Farmonov ilmiy rahbar etib tayinlansin.

**Yig`ilish raisi:**

**A.K.Ibragimov**

**Yig`ilish kotibi:**

**M.B.Ibragimov**

**Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti,  
“Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasining  
\_\_\_ son yig`lishi bayonnomasidan  
KO`CHIRMA**

« \_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018 yil

Qatnashdilar: p.f.n.dotsent, B.B.Ma`murov, dotsent  
M.J.Abdullaev, katta o`qituvchilar: S.Sh.Akramov,  
O.A.Farmonov, R.S.Baymurodov, D.Ro`ziev, B.Do`stov,  
M.G`afurova, A.K.Ibragimov, N.M.G`afurov,  
o`qituvchilar: M.K.Mahmudov, J.Murodov, Ya.Fayziev,  
A.Sattorov, R.Raxmonov, A.Yuldashev

**Kun tartibi:**

**1. 2017-2018 o`quv yili uchun mo`ljallangan bitiruv malakaviy  
ishlarning dastlabki himoyasining muhokamasi va himoyaga tavsiya etish.**

Yig`ilishda 7-5JM-14guruh talabasi Abdullaeva Nodira Baxodir qizi katta o`qituvchi O.A.Farmonov ilmiy rahbarligida bajargan “Maktab o`quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o`yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o`tkazish usullari” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishining tugallanganligi to`g`risidagi axboroti va ilmiy rahbar xulosasi tinglandi.

Qo`shimcha so`zga chiquvchilar yo`q. Ish yakunlanganligini hisobga olib,

**Kafedra yig`ilishi qaror qiladi:**

1. Jismoniy madaniyat fakulteti 7-5JM-14guruh talabasi Abdullaeva Nodira Baxodir qizining “Maktab o`quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o`yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o`tkazish usullari” mavzusida bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi, u sinov himoyasidan o`tdi deb hisoblansin va rasmiy himoyaga ruxsat etilsin.

2. Abdullaeva Nodira Baxodir qizining bitiruv malakaviy ishiga ilmiy maslahatchi sifatida dotsent M.B.Ibragimov belgilansin.

**Yig`ilish raisi:**

**A.K.Ibragimov**

**Yig`ilish kotibi:**

**M.B.Ibragimov**

*Abdullaeva Nodira Baxodir qizining*

**“Maktab o’quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o’yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o’tkazish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

### **ILMIY RAHBAR XULOSASI**

**Mavzuning dolzarbligi:** *Hozirgi kunda mamlakatimizda ma’mam sog’lom, hech kimdan kam bo’lmagan kuchli avlodni tarbiyalashda alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarorda, o’quvchilarni kompleks rivojlantirish bo’yicha aniq maqsadlarga yo’naltirilgan ishlar olib borilmoqda.*

*Bolalar yozgi sog’lomashtirish oromgohlarida ta’lim tarbiya, jismoniy tarbiya va sport ishlarini zamon talablari darajasida tashkil etish muammolari hozirgi kunda dolzarb bo’lib qolmoqda.*

*Abdullaeva Nodira Baxodir qizi tomonidan tayyorlangan “Maktab o’quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o’yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o’tkazish usullari” nomli bitiruv malakaviy ishda muammoning echimlari keltirilgan.*

**Belgilangan vazifalarning amalga oshirilganlik darajasi:** *talaba berilgan topshiriqlarni to’liq amalga oshirgan va ishni tajriba asosida tayyorlagan.*

**Bajarilgan ishga talabaning munosabati:** *talaba o’zi bajargan ishidan juda yaxshi ta’surotda, kelajakda o’qishdan so’ng ilmiy ishini davom ettirmoqchi.*

**Talabaning adabiyotlardan foydalanish va materialni mustaqil bayon eta olish ko’nikmalari:** *talaba ishni tayyorlashda juda ko’p adabiyotlarni o’qib tahlil qilgan va materiallarni mustaqil bayon eta oladi.*

**Talabalarining tadqiqotchilik ko’nikmalari:** *talabada tadqiqotchilik ko’nikmalari shakllangan va mustaqil faoliyat yurita oladi.*

**Talabaning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ya’ni pedagogik topshiriqlarni yecha olishi, mustaqil qaror qabul qila olishi va h.k:** *talaba yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega, pedagogik topshiriqlarni yecha oladi va mustaqil fikrga ega.*

**Olingan natijalarning amaliyotga ta’lim jarayoniga qo’llash imkoniyati hamda talabaning ixtisosligi bo’yicha beriladigan kvalifikatsiyani olishga loyiqligi:** *natijalarni amaliyotga qo’llash imkoni mavjud, talaba ixtisosligi bo’yicha beriladigan kvalifikatsiyani olishga loyiq.*

**Ilmiy rahbar:**

**O.A.Farmonov**

*Abdullaeva Nodira Baxodir qizining*

**“Maktab o’quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o’yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o’tkazish usullari”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bo’yicha rasmiy opponent

### **TAQRIZI**

**Mavzuning dolzarbligi:** *yozgi dam olish oromgohlarida musobaqalarni tashkil qilish va uni o’tkazishga etarli e’tibor qaratilmayapti. Maktab o’quvchilarining yozgi dam olishini samarali tashkil qilish, bo’sh vaqtlarini unumli o’tkazishda musobaqalarni shakllantirish borasida bir qator mutaxassislar o’z uslubiyotini tavsiya etishgan.*

*Shu boisdan echilmagan muammolarni hal qilish maqsadida oromgohlarni qayta ta’mirlash sport zallari va maydonchalarni belgilangan qoida asosida tartibga olib kelish, sport anjomlari va jihozlar bilan ta’minlash, musobaqalarni sport turlari qoldasi asosida olib borish masalalari keng jamoatchilik tononidan ma’qullanayapti.*

*Abdullaeva Nodira Baxodir qizi tomonidan tayyorlangan “Maktab o’quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o’yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o’tkazish usullari” nomli bitiruv malakaviy ish juda dolzarb.*

**Bajarilgan ishning unda belgilangan vazifalarga mos kelishi:** *bajarilgan ish belgilangan vazifalarga mos keladi.*

**Materialning mantiqiy bayon etilishi:** *ishda keltirilgan materiallarga ilmiy jihatdan yondashilgan va mantiqiy bayon etilgan*

**Ishga oid manbalarning to’la va yetarlicha tanqidiy tahlil etilganligi:** *ishga oid asosiy va qo’shimcha manbalar yetarlicha tahlil qilingan.*

**Ishning mustaqil bajarilganligi:** *talaba ishni tayyorlashda materiallarni, manbalarni mustaqil o’rganib so’ng nazariy ma’lumotlarni tashkil qilgan..*

**Olib borilgan tajriba ishlari samaradorligining to’la va to’g’ri baholanganligi:** *talaba tomonidan olib borilgan tajriba ishlari samaradorligi to’la va to’g’ri baholangan.*

**Xulosalarning to’liq izohlanganligi:** *ishdagi xulosalar to’liq izohlangan.*

**Ishning amaliy ahamiyati:** *ishdan kelajakda maktab oromgohlarida mashg’ulotlar va musobaqalarni tashkil qilish va o’tkazishda foydalansa bo’ladi.*

**Ishdagi kamchiliklar:** *ishda ayrim juziy kamchiliklar mavjud lekin bu kamchiliklar ishga salbiy ta’sir ko’rsatmaydi.*

**Ishning talab darajasida rasmiylashtirilishiga izoh:** *bitiruv malakaviy ish talab darajasida rasmiylashtirilgan.*

**Ishning himoyaga loyiqligi:** *bitiruvchi kurs talabasi Abdullaeva Nodira Baxodir qizining “Maktab o’quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o’yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o’tkazish usullari” mavzusidagi ishini tugallangan deb hisoblayman va uni himoyaga tavsiya etaman.*

**Ilmiy maslahatchi:**

**O’.A.Farmonov.**

Buxoro davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti 5112000 Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Abdullaeva Nodira Baxodir qizining

**“Maktab o'quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o'yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o'tkazish usullari”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishga DAKning  
**XULOSASI**

Buxoro davlat universiteti DAK Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi BMIning bajarish xaqidagi 31.12.98 yil 362-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan nizomda asosan quyidagilarni aniqladi:

1.BMIning xajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (meyor:tabiiy yonalishlar-50dan, ijtimoiy yig'ilishlar-70 betdan kam bo'lmasligi kerak): talabga javob beradi-10 ball talabga kisman javob beradi-7 ball, talabdan chetga chikish holatlari mavjud-4 ball.

2.Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi: davlat dasturiga kirgan-8 ball, grant loyixasi bo'yicha-7 ball, Bux DU dasturi bo'yicha-6 ball, dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball.

3.Mavzu dolzarbligining asoslanganligi: yetarli darajada asoslangan-5 ball, yetarli darajada asoslanmagan-3 ball, noanik-2ball.

4.Maqsad va vazifalarning anik ifodalanganligi: anik-7 ball, to'lik anik emas-5 ball, anik emas-3 ball.

5.BMI bajarishda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi: to'la-7 ball, kisman-5 ball, yetarli emas-3 ball.

6.Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi: natija yangi -8 ball, ilgari olingan-6 ball, to'la ishonchli emas-3 ball.

7.BMIning xulosa qismda ishlab chikarishga tavsiya bor-6 ball, ijtimoiy soxada ko'llashga (talim, atrof-mug'ptni ximoya kilish,manaviy-mariviy...)tavsiya kilingan-5 ball, tavsiya yo'q-Z ball.

8.Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarni tanqidiy baholanganligi darajasi: anik-8 ball, to'la anik emas-6 ball, tanqidiy baholanmagan-4 ball.

9.Ishning ilmiylik xarakteri: ilmiy tadkikodlar asosida-8 ball, aralash shaklidan-5 ball, referativ xarakterdan-3 ball.

10.Bitiruvchining maruzasiga baho: alo-10 ball, yaxshi-7 ball, qoniqarli-6 ball.

12.Berilgan savollarga javoblari: to'lik-8 ball, o'rta-6 ball, qoniqarli 4 ball.

13.BMIni tashqi takrizchi tomonidan baholanishi: alo-7 ball, yahshi-6 ball, qoniqarli-5 ball.

14.BMIga ko'yilgan yakuniy ball \_\_\_\_\_ Bahosi \_\_\_\_\_

Eslatma:Har bir bal bo'yicha aniklangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi \_\_\_\_\_

F.I.Sh.imzo

A'zolari \_\_\_\_\_

F.I.Sh.imzo

\_\_\_\_\_  
F.I.Sh.imzo

Sana « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018 y



DAVLAT ATTESTASIYA KOMISSIYASIGA  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**Jismoniy madaniyat fakulteti**

Talaba Abdullaeva Nodira Baxodir qizining “Maktab o’quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o’yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o’tkazish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi rasmiy himoyaga ruxsat etilsin.

Himoyaga bitiruvchining o’zlashtirishi to’g’risida ma’lumotnoma, bitiruv malakaviy ish haqida rahbar hamda kafedra yig’ilishi xulosasi, taqriz va talabaga tavsifnoma ilova qilinadi.

**Fakultet dekani:**

**B.B.Ma’murov**

2018 yil \_\_\_\_\_ iyun.

**MAVZU: “Maktab o’quvchilarining yozgi dam olish oromgohlarida voleybol o’yini musobaqalarini tashkil qilish va uni o’tkazish usullari”.**

**Reja:**

**KIRISH.** ishning dolzarbligi, ob’ekti, predmeti, uslubiy uslubiyoti, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, ishning amaliyotga qo’llash darajasi va tarkibiy hajmi

**I Bob O’zbekistonda voleybol o’yining tutgan o’rni.**

- 1.1. O’zbekiston voleybol Federatsiyasi, uning tarkibi va ish uslublari.
- 1.2. Voleybol o’yini musobaqa qoidalari, uni tashkil qilish va o’tkazish.
- 1.3. Voleybol o’yini bo’yicha yozgi dam olish oromgohlarda mashg’ulotlarni tashkil etish.

**II. Bob Bolalarning dam olishini tashkil qilish va sog’lomashtirish.**

- 2.1. Oromgohlarining faoliyatining asosiy tamoyillari.
- 2.2. Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog’lomashtirish.
- 2.3. Yozgi ta’tilda sport musobaqalarini o’tkazish.

**Xulosa.**

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

## Kirish

Bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohlaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini zamon talablari darajasida tashkil etishda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", prezidentning "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-mart prezidentimiz farmoniga ko'ra Jizzax viloyati Zomin tumanida "Aloqachi" sog'lomlashtirish oromgohi negizida gimnastika sport turi bo'yicha olimpiya tayyorgarlik markazi. Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumanida "Gulnora" sog'lomlashtirish oromgohi negizida sport yakkakurashlari bo'yicha olimpiya tayyorgarlik markazi tashkil etishko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va u bilan tasdiqlangan "Respublika oromgohlarida bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish Konsepsiyasi" qolaversa, bolalar o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari to'g'risidagi me'yoriy hujjatlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar va o'smirlarning yozgi sog'lomlashtirish davri muayyan aniq belgilangan muddat va sharoitda o'tkazilib, ta'lim tizimining bir qismi bo'lmog'i va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya izchilligini ta'minlashi lozim.

Bu davrning o'ziga xosligi - barcha bolalarning erkin ravishda o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun katta imkoniyat yaratishi hamda o'quv yili davomida o'quv yuklamalarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy, aqliy va ruhiy-emostional zo'riqishlarni bartaraf qilish, bolalarning yangi o'quv yiliga lozim bo'lgan tayyorgarlik bilan kelishlarini ta'minlashi bilan xarakterlanadi.

O'quvchilarning iste'dodini yanada rivojlangirish, dunyoda bo'layotgan voqea va jarayonlarga o'z munosabatlarini aniq bildira oladigan mustaqil fikriga ega, vatanparvar hamda xalqimizga sadoqatli farzand etib tarbiyalashda yozgi sog'lomlashtirish oromgohdarining o'z o'rnini bor.

Yozgi sog'lomlashtirish oromgohlari faoliyatiga mamlakatimizning

taniqli shoir va yozuvchilari, etakchi oliy ta'lim muassasalarining eng ilg'or o'qituvchilarini jalb etgan holda maxsus dastur asosida mashg'ulotlar, fan kechalari, viktorinalar, mushoiralar, turli tanlov va musobaqalar o'tkazish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan ko'zlangan maqsad yozgi oromgohdar faoliyatini yuksak ma'naviyat mezonlari asosida tashkil etish bo'lib, farzandlarimizning dam olishini mazmunan boyitishga xizmat qiladi.

### **Bitiruv malakaviy ishni dolzarbligi.**

Mamlakatimizda jismonan va ma'nan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmagan avlodni tarbiyalashga alohida etibor qaratilmoqda. "O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tuzish to'g'risida"gi 2002 yil 24 oktyabrda qabul qilingan farmonlari bu borada muhim dasturi amal bo'layotir.

Bolalar sportini rivojlantirish, yoshlarimiz o'rtasida ommaviy sportni ommalashtirish, bolalar sportini kompleks rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ishlar olib borilmoqda.

Bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohlaridagi ta'lim - tarbiya ishlarini zamon talablari darajasida tashkil etishda" Ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi.

### **Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti.**

Tadqiqot ob'ekti, Buxoro shahar umumta'lim maktablari va yozgi dam olish oromgohlari bo'lib, jismoniy tarbiya fani bo'yicha voleybol musobaqalarni tashkil qilish va uni o'tkazish jarayonlari.

### **Bitiruv malakaviy ishning predmeti.**

Yozgi dam olish oromgohlarda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish vositalari, uslublari, shakllari, pedagogik shart-sharoitlari.

### **Bitiruv malakaviy ishning uslubiy va uslubiyoti.**

Yozgi dam olish oromgohlarda tadqiqot mavzusi bilan bog'liq bo'lgan, voleybol o'yini bo'yicha musobaqalarni tashkil qilishga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarni, dastur, darslik, o'quv hamda uslubiy qo'llanmalarni o'rganish va ularni tahlil qilish.

Yozgi dam olish oromgohlarda tarjibali jismoniy tarbiya o'qituvchilarning ish tarjibalarini kuzatish va tahlil qilish.

Tarbiyachi va jismoniy tarbiya o'qituvchilar bilan suhbat o'tkazish, musobaqalar o'tkazish va ularning tahlil qilish.

### **Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishning asosiy maqsadi va vazifalari.**

Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishning asosiy maqsadi - bolalarning o'qishdan tashqari vaqtini sermazmun o'tkazish, ularning ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan hordiq chiqarishlarini ta'minlash, ular ongiga milliy g'oyani, vatanparvarlik tuyg'ularini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazishdan iboratdir.

Mazkur maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan vazifalar quyidagilardan iboratdir:

- bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishni tashkil etish va amalga oshirishning mukammal tizimini yaratish, respublika oromgohlar tarmog'ini takomillashtirish va rivojlantirish;
- bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish yuzasidan har yili rejalar ishlab chiqish, zarur moliyaviy mablag'lar manbalarini aniqlash va jalb etish orqali ushbu rejalarni to'liq amalga oshirish;
- bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, unda bajarish muddatlari va mas'ullarni aniq ko'rsatish, ushbu reja ijrosini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

- bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishni tashkil etish yuzasidan vazirlik, idora, tashkilot va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish va o'zaro hamkorligini ta'minlash, ularning taklif va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ommalashtirish;

- mazkur yo'nalishda hududlarda amalga oshirilayotgan ishlarni joyining o'ziga chiqqan holda o'rganib, doimiy ravishda monitoring qilib borishni yo'lga qo'yish, ularni yanada takomillashtirish bo'yicha tegishli choralarni amalga oshirish;

- bolalarda bugungi kundagi "ommaviy madaniyat"ning turli illatlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ular ongiga umuminsoniy va milliy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish, bu boradagi ishlarga davlat va jamoat tashkilotlarini keng jalb etish.

#### **Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.**

- Yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarning faoliyatini yangi tizimda tashkil etish o'rganildi.

- Yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarda sport musobaqalarini o'tkazishning zamonaviy shakl va uslublari o'rganildi.

- Yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarning ma'naviy-ma'rifiy ishlari o'rganildi.

#### **Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.**

Yozgi dam olish oromgohlarda sport musobaqalar tashkil qilish va o'tkazishni o'quvchilarning yozgi ta'til jarayonida foydalanish mumkin. Taklif etilayotgan yozgi dam olish oromgohlarda voleybol o'yin musobaqalarni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalardan adabiyotlar, darslik, o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishda ilgari surilgan g'oyalarni ta'limning yangi shakllarini yaratish va o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida foydalanish mumkin.

### **Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga qo'llanish darajasi.**

Ilmiy tadqiqot ishlar natijalari tahlil qilinib, jismoniy tarbiya fani o'qitish jarayonida talabaning yozgi dam olish oromgohlarda sport musobaqalari tashkil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalaridan 2018-yilda o'tkaziladigan yozgi dam olish oromgohlarda foydalanish mumkin.

### **Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va hajmi.**

Bitiruv malakaviy ish \_\_\_ betda bayon etilgan bo'lib: kirish \_\_\_ ta bob, xotima, foydanilgan adabiyotlar ro'yxati \_\_\_ ta chizma \_\_\_ ta jadvallardan tashkil topgan.



## **I BOB O'ZBEKISTONDA VOLEYBOL O'YINING TUTGAN O'RNI.**

Sportchi rezervlarini va yuqori malakali sportchilarni etishtirishni boshqarish mas'uliyati O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi qaramog'idagi sport o'yinlarining voleybol federatsiyasiga shubasiga yuklanadi. Bunday federatsiyalar respublikamizning har bir tuman, shahar va viloyatlarda mavjud bo'lib, ular joylarda voleybol taraqqiyotini ta'minlashga javobgardirlar.

### **1.1.O'zbekiston voleybol federatsiyasi, uning tarkibi va ish uslublari.**

Mamlakatimizda voleybolni ommaviylashtirish, rivojlantirish, uni ravnaq toptirishda O'zbekiston voleybol Federatsiyasi rahbarlik va boshqaruvchi rolni o'ynaydi. Respublikamizning tuman, viloyat va shaharlarida esa bu mas'uliyat joylardagi Federatsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Federatsiyaning oliy rahbar organi respublika anjumanidir. U mamlakatda voleybolni rivojlantirishning asosiy masalalarini hal qiladi. Federatsiya anjuman tufayli saylangan o'z prezidiumidan (rayosatidan) iborat.

Rayosat o'z navbatida belgilangan ijroiyl qumitasiga ega bo'lishi kerak. Qo'mitada Federatsiyaning prezidenti rahbarligida direktorat va doimiy hay'atlar tuziladi. Bu hay'atlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat ko'rsatadilar:

- moliyaviy-iqtisodiy;
- yuridik-huquqiy;
- moddiy-texnika ta'minlovi;
- ommaviy-tashkiliy;
- murabbiylar kengashi;
- ilmiy-uslubiy;
- sport-texnika;
- bolalar va o'smirlar sporti;
- xalqaro sport aloqalari;



- respublika sport faxriylari kengashi.

Ko'rinib turibdiki, mazkur yo'nalishlarning nomlarining o'zi hay'atning vazifasi, bajaradigan tadbirlari va butun faoliyatlari mazmunini belgilab berib turibdi.

### **Jahonda voleybolni rivojlantirish jarayonini xalqaro tashkilotlar darajasida boshqarish.**

Voleybol taraqqiyotini boshqarish xalqaro voleybol federatsiyasi (XVF-FIVB) nazorat konfrentsiyalar orqali ijro etiladi. Evropa, Osiyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Markaziy Amerika va Karib dengizi, Janubiy Amerika mintaqalarning zonal konfrentsiyalari mavjud.

FIVB o'zining ustaviga ega. U vaqti-vaqti bilan voleybol sohasida ro'y berayotgan asosiy voqealar bilan yoritilgan rasmiy blyuten chiqarib turadi, turli uslubiy ko'rsatmalar, hujjatlar, nizomlar, tavsiyanomalar chop etiladi.

FIVB ning asosiy maqsadi-jahonning turli mintaqalarida voleybolni rivojlantirish, barcha davlatlarining sportchilari va rasmiy shaxslari orasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlash, milliy voleybol federatsiyasini birlashtirish, yangi milliy voleybol federatsiyalari tuzish, rasmiy musobaqalar o'tkazish, o'yin qoidalari va taktikasini shakllantirishdan iborat.

FIVB ning oliy organi-Kongressdir. U 2 yilda bir marta o'tkaziladi.

FIVBning rahbar organi-ma'muriy kengash bo'lib, o'z prezidenti, bosh kotibi va uni yordamchilari, 4 va vitse prezidenti, 12 ta kengash a'zolari va zonal konfederatsiyalarning prezidentlaridan tashkil topgan.

Ma'muriy kengashning qarorlarini ijroya qo'mita hayotga tadbiiq etadi. Ijroya qo'mita o'z prezidentidan, 2 vitse prezidentidan, bosh kotibi va uni yordamchisidan iborat. FIVBda texnik organlar ham mavjud bo'lib, ular 5 ta doimiy hay'atdan tashkil topgan.

1.Tashkiliy-sport hay'ati- musobaqalarni tashkil qilish va ularni tashkil etish, ma'lumotlarni yig'ish va voleybol bo'yicha xalqaro sport kalendarini rejalashtirish.

2. Murabbiylar bo'yicha hay'at-voleybol endigina rivojlangan mintaq va davlatlarda shu sport turini taraqqiy ettirish tadbirlarini tashkil qilish, murabbiylar bilan seminarlar uyushtirish, ularga maslahatlar berish, voleybol bo'yicha" qo'li kalta" davlatlarga yordam sifatida murabbiylarni har xil muddatlarga ishga jo'natish, uslubiy ko'rsatma va tavsiyalarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish ishlari bilan shug'ullanadi.

3. Arbitraj hay'ati musobaqalar hakamlarni tayinlash, ularning faoliyatiga rahbarlik qilish, tashkil etish va baholash, xalqaro seminarlarni uyushtirish, hakamlilik qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish ishlarini bajaradi.

4. O'yin qoidalari bo'yicha hay'at - Ma'muriy kengash va kongress muhokamasiga o'yin qoidalari bo'yicha kiritilgan o'zgarishlarga oid tavsiyalarni taqdim etish, arbitraj hay'ati bilan birgalikda hakamlilik qilish qoidasini ishlab chiqish va o'yin qoidalariga yagona fikrda yondashishni ta'minlash kabi tadbirlarni amalga oshirish.

5. Tibbiy hay'at - musobaqalar jarayonida tibbiy xizmat ko'rsatish o'quv-trenirovka mashg'ulotlarini tibbiy nazorat qilish, organizm va ish qobiliyatini tiklashga oid tadbir vositalar hamda shikastlanishlarni oldini olish kabi masalalar bo'yicha taklif, tavsiya va ko'rsatmalar tayyorlash ishlarini ijro etadi.

FIVB o'z tarkibiga 160 ta davlat kiritilgan eng ko'p sonli federatsiya o'ziga ma'lum moliyaviy masuliyatni olishi shart, a'zo bo'lib kirishda va har yili badal to'lash, rasmiy birinchiliklar va xalqaro uchrashuvlar o'tkazish uchun pul mablag'i ajratish, FIVB tasarrufida o'tkaziladigan rasmiy musobaqalarga ishtirok etish uchun badal to'lash sharti bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgandan so'ng mamlakatimizning milliy voleybol Federatsiyasi hayotida ham unitilmas o'zgarishlar yuz berdi. 1992 yil O'zbekiston milliy voleybol Federatsiyasi Osiyo zonal konfederatsiyasiga a'zo bo'lib qabul qilindi. Osiyo zonal konfederatsiyasida O'zbekiston voleybol federatsiyasi juda katta rol o'ynaydi.

### **Ommaviy sportni targ'ibot qilishning hozirgi davr talablari.**

Targ'ibot tashviqot ishlari muayyan voqealarni keng yoyish va ommaga chuqur singdirish quroli ekanligi sir emas. Boshqa sohalar kabi jismoniy madaniyat harakatida targ'ibot ishlari muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillikning muhim talablaridan biri sifatida sportni keng ommaga yoyishda teleko'rsatuvlar, radio eshiritishlar, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar hamda bevosita muloqotlar mazmun va shakl jihatdan tobora kengaymoqda. Ularning mazmuni aholining qiziqishlari va talablariga to'la mos ekanligini inkor qilish mumkin emas.

Teleko'rsatuvlardagi turli xil sport musobaqalarini, ayniqsa futbol, kurash, boks, suzish, badiiy gimnastika kabi sport turlarini miriqib tomosha qiluvchilar kun sayin ko'paymoqda. Bunga qaramasdan, yirik sport inshootlari (stadion, sport komplekslari, o'yin maydonlari) nufuzli sport musobaqalarida tomoshabinlar soni ko'payib bormoqda.

Mustaqillik tufayli aholining ijtimoiy-madaniy turmush darajasini ko'rsatish, sog'lom avlod tarbiyasini yaxshilash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ularni boyitishda sport turlarining o'ziga xos o'rni borligini inkor qilib bo'lmaydi. Lekin bu muammolarni hal etishda jiddiy kamchiliklar ham oz emas.

Jismoniy tarbiya va sportning mohiyatini keng ommaga singdirish, kundalik turmush sharoitimizda ulardan oqilona foydalanish maqsadlarini amalga oshirish yo'lida respublika hukumati hamda davlat idoralari va sport vazirligining olib borayotgan ishlari, amaliy ish faoliyatlari diqqatga sazovordir.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-3031 son qarori muhim ahamiyatga egadir.

Bunda, eng avvalo, respublika ommaviy axborot vositalari, O'ztele-radio kompaniyasi, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlarning vazifalari aniq belgilab berildi. Respublikamizda sport telekanali 24-soat xalqimizga turli xil

tadbirlarni ko'rsatib kelmoqda. Sport mavzusi nufuzli gazetalar, jurnallar, telekanallar, radiolarda oldingi sahifalardan o'rin egallamoqda. O'g'il qizlarimiz xalqaro musobaqalarda yutuqlarga erishmoqdalar. Kuzatishlar, mulohazalar, tahlillarning natijalari asosida aytish mumkinki, ommaviy sport targ'ibot ishlari mamlakatimizning turli joylarida rivojlanishi sezilmoqda. Shaharlarda, tuman va qishloqlarda mazkur qaror asosida ishlar jonlantirildi va talab darajasida bo'lmoqda. Ya'ni amaliy targ'ibot ishlari ancha yuqori, ularning ta'sir kuchlari ommaga to'la singib bormoqda. Ularning ba'zilarini quyidagicha ifoda etish mumkin, ya'ni:

1. Stadionlardagi futbol, voleybol o'yinlarida, o'yin maydonlaridagi basketbol, qo'l to'pi, engil atletika, boks, va boshqa sport turlari bo'yicha tomoshabinlar juda ko'p.

2. "Umid nihollari, Barkamol avlod, Universiada"larning birinchi va ikkinchi bosqichlarda qatnashuvchi o'quvchilar, talaba yoshlar 80-95 foizni tashkil etadi.

3. "Alpomish o'yinlari", "To'maris o'yinlari" respublika festivallari, "mahalla polvonlari", "Sog'lom oila" sport musobaqalari va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etuvchilar soni yildan-yilga oshib bormoqda.

4. Tashkil etilayotgan ommaviy va nufuzli sport musobaqalari jarayonlarida afishalar, targ'ibot manbalari ko'pchilikni qiziqtirilayapti. Har bir kishining diqqatini jalb etuvchi e'lonlar, rag'batlantirish, tadbirlar va, musobaqalar tashkil etilmoqda.

5. O'quv yurtlari, turli muassasalar, ishlab chiqarish mehnat jamoalari, ayniqsa, mahalla va qishloq sharoitlarida ommaviy sportni targ'ibot qilish, tomoshabinlarni ko'paytirish chora-tadbirlariga e'tibor berilmoqda.

6. Xalq milliy o'yinlarini ommalashtirishda moddiy-texnik bazalar, asbob-uskunalar bilan ta'minlash, mutaxassis kadrlar tayyorlash va ular bilan bog'liq faoliyatlarga etarli e'tibor berilmoqda.

## **1.2.Oromgohlarda voleybol o'yini musobaqa qoidalari, uni tashkil qilish va o'tkazish.**

Voleybol o'yinining dastlabki rasmiy o'yin qoidalari 1996 yilda Amerikalik doktor A.Xolsted rahbarligida ishlab chiqilgan. Mazkur qoidalarni ayrim bandlari quyidagilardan iborat bo'lgan:

- maydonchani o'lchami           7,6 x 16,1 m;
- to'rni balandligi               198 sm;
- to'pni og'irligi                 340 g;
- o'yinchilar tarkibi chegaralanmagan;
- to'p o'yinga maydonchani o'ng tashqi qismida joylashgan 1x1 metrli to'rtburchak shakldagi joydan bir oyoqda turib kiritilgan va hokazo.

Voleybolning borgan sari ommaviylasha borishi va ishtirokchilarning o'yin mahorati shakllana borishi bilan bir qatorda musobaqa qoidalari ham o'zgarib, takomillashib borgan.Hozirgi paytda:

- maydonchani o'lchami           9 x 18 m;
- to'rni balandligi               erkaklar "243", ayollar "224" sm;
- to'pni og'irligi                 260±280gr
- o'yinchilar tarkibi chegaralangan;

### **Voleybol turi bo'yicha musobaqa nizomi**

#### **I. Maqsad va vazifalar**

- Voleybol sport turini ommalashtirish;
- Sog'lom turmush tarzini kundalik hayotga singdirish.

#### **II. Musobaqani o'tkazishga rahbarlik**

Musobaqa voleybol Federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan rasmiy o'yin qoidalari asosida o'tkaziladi. Musobaqaga umumiy rahbarlik voleybol Federatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Musobaqaga bevosita rahbarlik voleybol federatsiyasi Kengashida tasdiqlangan hakamlar kollegiyasiga yuklatiladi. Musobaqaning bosh hakami etib tajribali va milliy toifadagi hakam tayinlanadi. Musobaqa joylarini tayyorlash musobaqa o'tkazuvchi tashkilot yoki

voleybol federatsiyasi zimmasiga yuklatiladi.

### **III. Musobaqa o'tkazish joyi va vaqti**

Musobaqa 2018 yil 20 iyun kunlari Buxoro shahrining Xalq ta'lim boshqarmasiga qarashli "Yosh kuch" oromgohi sport bazasida o'tkaziladi. Jamoalarning saflanish vaqti 20 iyun kuni.

### **IV. Musobaqa ishtirokchilari**

Musobaqaga oromgohda dam oluvchi, barcha o'quvchilar Jamoa tarkibi 10 kishidan iborat bo'ladi.

### **V. Natijalarni aniqlash**

O'rinlar yig'ilgan ochkolarni ko'pligi bilan aniqlanadi. Jamoaga yutuq uchun 3 ochko, mag'lubiyat uchun 1 ochko, o'yinga kelmaganligi uchun 0 ochko beriladi.

Ikkita yoki bir necha jamoalar bir xil ochko yig'ganda o'rinlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

- a) barcha o'yinlardagi partiyalar nisbati;
- b) barcha o'yinlardagi to'plar nisbati.

O'yinlar o'tkazish tizimi qatnashuvchi jamoalar soniga qarab hakamlar kollegiyasi tomonidan belgilanadi.

### **VI. Taqdirlash**

Musobaqada g'olib chiqqan jamoa va ishtirokchilar Buxoro Xalq ta'limiga qarashli kasaba uyushmasi kengashi va voleybol Federatsiyasi tomonidan tegishli darajadagi diplomlar, vimpellar va ta'sis etilgan sovg'alar bilan mukofotlanadi.

### **VII. Musobaqa ishtirokchilarini rasmiylashtirish tartibi.**

Jamoa vakili 20 iyun kuni musobaqa tashkilotchilariga yoki bosh hakamga musobaqaga buyurtmasini berishi shart. Bosh hakam rahbarligida mandat komissiyasi nizomga ko'ra ishtirokchilarni hujjatlarini tekshirib chiqadi.

Hakamlar tarikibi jamoa vakillari bilan birgalikdagi yig'ilishi 2018 yil 19 iyun kuni oromgohning majlislar zalida soat 19.00 da o'tkaziladi.

## **Voleybol o'yinning mohiyati va mazmuni**

Voleybol maxsus maydonchanning o'rtasidan to'r bilan ajratilgan qismlarida 2 jamoaning to'p vositasida musobaqalashuvidan iborat sport o'yinidir.

O'yinning maqsadi - to'pni to'r ustidan raqib maydonchasiga tushirish va raqibning aynan shunday harakatiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Bunda jamoa to'p bilan 3 marta o'ynash huquqiga ega (to'siq qo'yishdan tashqari).

O'yin to'pni o'yinga kiritish usuli bilan boshlanadi: to'p kirituvchi o'yinchi zarb bilan to'pni to'r ustidan raqib jamoa maydonchasi tomonga yo'naltiradi. To'p maydon chiziqlari chegarasidan chiqib erga tushguncha yoki jamoa o'yinchisi xatoga yo'l qo'yguncha o'yin davom etadi.

Voleybolda har bir o'yin vaziyatining natijasi, to'p qaysi tomondan kiritilganligidan qat'i nazar, ochko bilan tugallanadi.

### **Inshootlar va uskunalalar**

#### **O'yin maydoni**

O'yin maydoni 9x18 m li to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. O'yin maydonining yuzasi tekis, gorizonta va bir xil bo'lishi hamda o'yinchilar uchun hech qanday jarohat olish xavfini tug'dirmasligi lozim.

#### **Maydondagi chiziqlar**

Barcha chiziqlarning kengligi 5 sm. O'yin maydonchasini ikkita yon va ikkita orqa chiziqlar chegaralaydi. O'rta chiziq o'yin maydonini har biri 9x9 m o'lchamga teng bo'lgan ikki maydonchaga ajratib turadi. Har bir maydonchanning hujum chizig'i o'rta chiziqdan 3 m oraliqda bo'lib, 5 sm oraliqda 5 ta 15 sm li kesik chiziqlar bilan yon chiziqlar tashqarisiga davom ettirilgan bo'ladi.

#### **Zonalar**

Oldingi hujum zonasida 2-, 3-, 4-zonalar joylashadi. Orqa himoya zonasida 1-, 6-, 5-zonalar joylashadi. To'p kiritish zonasi 9 m o'lchamga teng bo'lgan orqa chiziqning davomidir.

## To'p, to'r va ustunlar

### To'rning tuzilishi

To'rning kengligi 1 m va uzunligi 9,5 m bo'lib, teshiklari 10x10 sm kvadrat shaklida, qora rangli ipdan to'qilgan bo'lishi kerak. To'rning yuqori qismida 5 sm kenglikdagi tasma bo'lib, uning ichidan tross (ustunlarga mustahkamlash uchun) o'tkaziladi. To'rning pastki qismidan shnur o'tkaziladi. To'rning ikki tomonidan ikki yon chiziq'larga perpendikular ravishda chegaralovchi tasmalar joylashtiriladi. Tasmalarning kengligi 5 sm va uzunligi 1 m bo'ladi. To'rning ikki tomoniga joylashtirilgan chegaralovchi tasmalar bilan bir yo'nalishda ikki antenna vertikal ravishda joylashtiriladi. Antenna diametri 10 mm, uzunligi 1,8 m li naychadan iborat bo'lib, qattiq egiluvchan materialdan tayyorlangan bo'ladi.

To'r o'rta chiziq ustidan vertikal joylashtirilishi kerak. To'rning yuqori chegarasi maydon yuzasidan erkaklar uchun 2,43 m va ayollar uchun 2,24 m balandlikda o'rnatilishi lozim. Yosh xususiyatlariga qarab ham to'rning balandligi farqlanadi:

Yoshi \ jinsi	11-12 yosh	13-14 yosh	15-16 yosh	17-18 yosh
O'g'il bolalar	220 sm	230 sm	240 sm	243 sm
Qiz bolalar	200 sm	210 sm	220 sm	224 sm

### Ustunlar


To'r tortiladigan ustunlar yon chiziq'lardan 0,5-1,0 m oraliqda o'rnatiladi. Ustunlarning balandligi 2,55 m. Ustunlar yumaloq va tekis shaklda bo'lib, o'yinchilarga xavf tug'dirmasligi kerak. Ustunlar tortuvchi va taranglashtiruvchi moslamalarsiz o'rnatilishi darkor.



## To'p

To'pning ichidagi kamerasi rezinadan, tashqi qismi tabiiy yoki sintetik charmdan ishlanib, o'zi qat'iy dumaloq shaklga ega bo'lishi lozim. Uning aylana diametri 65-67 sm, og'irligi 260-280 g, ichki bosimi 294,3 dan 318,82 mba yoki gPa gacha bo'lishi lozim.

### Voleybol maydoninig chizmasi



## Hakamlar va ularning faoliyati

### hakamlar tarkibi

Har bir uchrashuvni hakamlar tarkibi boshqarib boradi va bu tarkibga: birinchi hakam, ikkinchi hakam, kotib, to'rtta (yoki ikkita) chiziq hakamlari kiradi.

### Birinchi hakamning vakolatlari

Birinchi hakam o'yin jarayoni boshlanganidan to yakunlanguniga qadar uni boshqarib boradi. U shu o'yinda ishtirok etayotgan barcha hakam va o'yinchilarga rahbarlik qiladi. Uning qarori hal qiluvchi kuchga ega. Birinchi hakam qolgan hakamlar qarorini noto'g'ri deb topsa, uni bekor qilish huquqiga ega. Agar biror hakam vazifasini uddalay olmasa, birinchi hakam uning vazifasini o'z zimmasiga olishi mumkin.

Birinchi hakam chiqargan qarorni muhokama qilishga yo'l qo'yilmaydi. Lekin jamoa sardori iltimosiga ko'ra u o'z qaroriga izoh berishi mumkin. Birinchi hakam o'yindan oldin maydon, to'p va boshqa uskunalar holatini

nazoratdan o'tkazadi.

Jamoa sardorlari bilan qur'a tashlashni uyushtiradi.

O'yin davomida faqat birinchi hakam quyidagilar bo'yicha qaror chiqarish huquqiga ega: jamoalarni ogohlantirish; jazolash; to'p kirituvchining xatosi; to'p kirituvchi jamoa a'zolarining joylashishidagi xatosi bo'yicha; to'p bilan o'ynash xatolari bo'yicha; tor va uning ustida ro'y beradigan xatolar bo'yicha; orqa chiziq o'yinchilari va "Libero" hujum zarbasi; "Libero"ning oldingi zonadan yuqoridan uzatilgan to'piga hujum zarbasi qo'llanilganda.

### **Ikkinchi hakam vakolatlari**

Ikkinchi hakam birinchi hakam ro'parasidagi voleybol ustuni ortida birinchi hakamga qaragan holda tik turib joylashadi. U zahiradagi o'yinchilarni kuzatib turadi; tanaffus olish va o'yinchi almashtirishga ruxsat beradi; o'yin oldidan, har bir partiya oldidan o'yinchilarning maydondagi joylashuvini nazorat qilib turadi. O'yin vaqti hushtak chaladi va ishora bilan quyidagilar bo'yicha qaror qabul qiladi: o'yinchi maydon va to'r ostidan raqib tomonga o'tib ketganda; o'yinga kiritilayotgan to'pni qabul qiluvchi jamoa joylashuvda xatoga yo'l qo'yganda; o'zi joylashgan tomon yaqinida o'yinchi to'rga va chegaralovchi antennaga tegib ketganda; orqa chiziq o'yincchisi yoki "Libero" to'siq qo'yganda; o'yinchi to'rning pastki qismiga tegib ketganda.

### **Kotib**

Kotib o'z faolliyatini yuritish uchun birinchi hakam qarshisidagi ustun ortida (ikkinchi hakam orqasida) joylashadi. Kotib quyidagi vazifalarini bajaradi: o'yin bayonnomasiga o'yin va jamoa haqidagi ma'lumotlarni yozadi; yigilgan ochkolar, tanaffuslar, o'yinchilarni almashtirish; jazo choralari, to'pni o'yinga kiritish navbatlarini yozib, boradi va nazorat qiladi; yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar buzilganda, ikkinchi hakamga xabar qiladi.

### **Chiziq hakamlari**

Chiziq hakamlari (4 ta bo'lganda) maydonning har bir burchagidan 1-3 m uzoqlikda joylashadilar va o'z chiziqlarini nazorat qiladilar. Agar o'yinda 2 ta chiziq hakami ishtirok etsa, ular maydon burchaklaridan 1-2 m uzoqlikda bir-

biriga diagonal holatda joylashadilar. Ular yon va orqa chiziqlami o'z tomonlaridan nazorat qiladilar. Chiziq hakamlari qo'llaridagi bayroqchalarni harakatlantirib, quyidagilarni ifodalaydilar: to'p maydonga yoki chiziq ustiga tushsa, bayroqni pastga (maydonni ko'rsatib) tushiradilar; to'p maydon tashqarisiga tushsa yoki chegaralovchi antenna tashqarisidan o'tsa, bayroqni yuqoriga ko'taradilar. Voleybol bo'yicha musobaqalar o'quv-mashg'ulot ishlarining asosiy qismidir. Ular mashg'ulotlardagi jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik samarasini ko'rsatib beruvchi yakuniy ko'rsatkich bo'lib ham hisoblanadi. Musobaqalar tasdiqlangan taqvimiy reja asosida o'tkaziladi.

Sport musobaqalari sportchini tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Voleybol bo'yicha musobaqalar oldiga qo'ygan vazifalariga ko'ra quyidagi turkumlarga bo'linadi: chempionatlar, kuboklar, saralash va yordamchi musobaqalar (tayyorlov, nazorat va boshqalar).

***Chempionat va kubok musobaqalari*** eng asosiy musobaqalar bo'lib, bu musobaqalarda eng kuchli jamoalar aniqlanadi. Bu musobaqalar ko'lami bo'yicha turlicha bo'ladi: jahon, qit'a, mamlakat, viloyat, shahar miqyosidagi va boshqalar.

Saralash musobaqalari o'z maqsadi va vazifasiga ko'ra asosiy musobaqalarning keyingi bosqichiga chiqish yoki malakali o'yinchilarni ma'lum bir jamoa tarkibiga qabul qilishni nazarda tutadi.

***Yordamchi musobaqalar*** tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ko'rgazmali musobaqalar voleybolni ommaviylashtirish va targ'ib qilish maqsadida tashkil etiladi. Ular ommaviy sport bayramlarida, o'quv yurtlarida, dam olish oromgohlarda tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi;

- qisqartirilgan musobaqalar (blits turnirlar) g'olibni aniqlash uchun qisqartirilgan partiyalar bilan o'tkaziladi. Bunday musobaqalar bayram kunlarida, sport mavsumlarining ochilishida tashkil qilinadi;

- tasnif musobaqalari - sport tayyorgarligi darajasini aniqlash va sport tasniflarini (razryadlar) berish maqsadida tashkil qilinadi;

- tenglashtiruvchi musobaqalarning asosiy vazifasi kuchli raqib jamoasi

bilan uchrashishga imkon berish yo'li bilan kichik tasnifdagi sportchilarning o'sishini rag'batlantirishdan iborat;

- nazorat va tayyorlov musobaqalari jamoa va alohida o'yinchilarning oldindagi rasmiy musobaqalarga tayyorgarlik holatini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Mashg'ulot jarayonida tayyorlov va nazorat musobaqalari katta o'rinni egallaydi. Yordamchi musobaqalar, asosan, tayyorlov va musobaqa davrlarining yarmida rejalashtiriladi. Tanlov va asosiy musobaqalar ko'pincha bir yilda 2-3 marotaba o'tkaziladi. Turli xil musobaqalarning ahamiyati va o'rni ko'p yillik tayyorgarlik bosqichiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang'ich bosqichlarda faqat tayyorlov va nazorat musobaqalari rejalashtiriladi va o'tkaziladi.

Sportchilar malakasining o'sib borishiga qarab, keyingi ko'p yillik tayyorgarlik bosqichida musobaqalar soni ortib boradi, musobaqa davriga tanlov va asosiy musobaqalar kiritiladi. Musobaqalar sportchi tayyorgarlik darajasining asosiy nazorat shakli bo'libgina qolmay, balki sport mahoratini takomillashtirishning zarur omilidir.

Musobaqalarni rejalashtirganda tayyorgarlikning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, musobaqalar shunday tanlanishi kerakki, ularning yo'nalishi, qiyinchilik darajasi ko'p yillik tayyorgarlikning tuzilishi, vazifasi bilan qat'iy mos kelsin. Ikkinchidan, agar sportchi o'zining jismoniy, texnik-taktik va psixologik qobiliyatiga qo'yilgan vazifalarni echa oladigan bo'lsa, musobaqalarga jalb qilinadi. Uchinchidan, musobaqa va mashg'ulot amaliyotini rejalashtirish kerak, ayniqsa, tayyorgarlik jarayoni samarali amalga o'tishi va sportchi asosiy musobaqalarda o'z imkoniyatini ochib berishi zarur. To'rtinchidan, musobaqalar dasturi va qatnashuvchilar tarkibi kuchli raqobat muhitini ta'minlashi kerak.

### **Yozgi oromgohlarda musobaqalarni o'tkazish tartibi**

O'yin tizimini tanlashdan oldin birinchi navbatda quyidagi vazifalar hisobga olinishi lozim. Uni o'tkazish mumkin bo'lgan muddati,

qatnashuvchilarning sport tayyorgarligi darajasi, musobaqani o'tkazish uchun hududiy joylashish to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak. Musobaqalar aylanma, (olimpiya) yutqazgan chiqib ketadigan va aralash tizimlar asosida o'tkaziladi.

**Aylanma tizim** bo'yicha hamma qatnashuvchi jamoalar bir-birlari bilan uchrahadi. Musobaqalashuvchilarning kuchlari o'rtasidagi nisbatni, ayniqsa, aylanma usul ob'ektiv aniqlashga imkon beradi. Bu tizim tasodifiy natijalar oldinini oladi va sportchilar tayyorgarligini tekshirishga va g'oliblarni aniqlashga to'liq imkoniyat beradi.

Aylanma tizim bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar ko'p vaqt talab qiladi, bu uning asosiy zaif tomonidir.


Aylanma tizim bo'yicha o'yin taqvimini quyidagicha tuziladi:

O'yinlarning navbati maxsus jadval yordamida aniqlanadi. Barcha jamoalar qur'a tashlash asosida tartib raqamlarini oladilar. Shundan so'ng musobaqaning har bir kunida qaysi jamoalar (qur'ada tushgan raqam bo'yicha) bir-biri bilan uchrashishi jadval yordamida aniqlanadi. Agar ishtirok etuvchi jamoalar soni toq bo'lsa, unda har kuni bir jamoa dam oladi.

Jadval tuzishda qatnashuvchilar soniga qarab vertikal chiziqlar chizib chiqiladi. Chiziqlar, asosan, toq olinadi. Masalan, 7,8ta jamoa qatnashuvida, 7ta, 9-10ta jamoa bo'lganda 9 ta vertikal chiziq chizib olinadi.

Unda qatnashuvchilar raqami (qur'a natijasiga asosan) quyidagicha yoziladi: birinchi chiziq tagiga 1 raqami qo'yiladi, bitta chiziqdan so'ng 2 raqami, yana bittadan so'ng 3 raqami va hokazo. Yuqoridagi ikkinchi chiziqdan boshlab, keyingi raqamlarning joylashishini davom ettiramiz: 4 raqami, bittadan so'ng 5 raqami va hokazo. Oxirgi, juft raqam mavjud bo'lganda yuqoridagi raqamlar yoniga yoziladi.

Undan keyin 1 dan 5 gacha raqamlar egri chiziq bo'yicha namunada ko'rsatilganidek yozib chiqiladi.



Raqamlardan har bir vertikal chiziqning o'ng tomonidan boshlab o'ynaydigan juftlik kelib chiqadi va ular birinchi chiziqning pastidan yuqorisiga, o'ngidan chapiga, ikkinchi vertikal chiziqning yuqorisidan pastiga qarab yoziladi.


1 kun	2 kun	3 kun	4 kun	5 kun
1- (6)	(6)-4	2- (6)	(6)-5	3-(6)
2- 5	5- 3	3- 1	1- 4	4- 2
3- 4	1-2	4- 5	2- 3	5- 1

Chap tomonda turgan jamoalar maydon egalari hisoblanib, ular mehmon jamoalarning sport kiyimidan rangi bilan farq qiladigan ikkinchi sport kiyimiga ham ega bo'lishlari kerak.


### **Yutqazgan chiqib ketish tizimi (olimpiada o'yinlari tizimi)**

Yutqazgan chiqib ketish tartibida o'tkaziladigan musobaqada uchrashuvda mag'lub bo'lgan jamoa musobaqalardan chiqib ketadi. Bu tartibning kamchiligi shundaki, o'yin natijasi tasodifiy bo'lishi ham mumkin. Ustunligi shundaki, ko'p sonli jamoalar qatnashayotgan musobaqalarni o'tkazish uchun ozgina vaqt kerak bo'ladi. Musobaqada ishtirok etayotgan jamoalar soni 4, 8, 16, 32 va hokazo bo'lganda, hamma qatnashuvchilar musobaqaning birinchi turidan qatnashishadi. Juftliklar tartib raqamlari yuqoridan pastga qarab tuziladi.

8 ta jamoa uchun namuna:



$$n = (A - 2^a) \times 2,$$



Agar jamoalar soni 2 ning darajasiga barobar bo'lmasa, unda ayrim jamoalar (qur'a natijasiga ko'ra) ikkinchi davradan boshlab qatnashadilar. Jadvalni shunday tuzish kerakki, ikkinchi turda o'ynaydigan jamoalar soni teng bo'lishi kerak. Birinchi davrada nechta jamoa ishtirok etishi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

bunda,  $A$  — jami jamoalar soni;  $n$  — qatnashadigan jamoalar soniga yaqin bo'lgan daraja. Misol uchun 11 ta jamoa ishtirok etadigan musobaqani oladigan bo'lsak:  $A=H$ . 11 ga eng yaqin son 8 bo'ladi ( $2^3 = 8$ ). Formula asosida echamiz:  $(11 - 8) \times 2 = 6$ . Birinchi turda 6 ta jamoa o'ynashi kerak. Ikkinchi davradan boshlab o'ynaydigan jamoalar uchun 2 ta yuqoridagi va 2 ta pastdagi raqamlar belgilanadi. Barcha raqamlar (birinchi davrada

o'ynaydigan raqamlar ham) jadvalda yuqorida va pastda joylashgan jamoalar o'rtasida teng taqsimlanadi. Agar jamoalar soni toq bo'lsa, unda ikkinchi davradan o'yinni boshlaydigan jamoalarning soni jadvalning pastida yuqoridagiga nisbatan bitta ortiq bo'ladi. Birinchi davradan o'yinni

boshlaydigan jamoalarda esa, aksincha, jadvalning yuqorisida bitta raqam ortiq bo'ladi. Bir musobaqa doirasida ikki tizimdan ham foydalanish mumkin bo'lib, bu tizim shartli ravishda aralash tizim deb nomlanadi. Aralash tizimda guruhlar yoki zonalarda o'yin aylanma tizimda, so'ngra esa yutqazgan chiqib ketish tizimida olib boriladi yoki aksincha bo'lishi mumkin.





### **1.3.Voleybol o'yinii bo'yicha yozgi dam olish oromgohlarda mashg'ulotlarni tashkil etish.**

Yozgi dam olish oromgohlarida voleybol bo'yicha o'quv - mashg'ulotlar darsdan tashqari sport-ommaviy ishlar (to'garak, jamoa, musobaqalardagi mashg'ulotlar) jarayonida o'tkaziladi. Ushbu mashg'ulotlar mazmuni kun tartibida belgilanadi.

#### **Voleybol o'yini malakalariga o'rgatishning maqsad va vazifalari.**

Sport malakalariga dastlabki o'rgatish jarayoni ko'p yillik sport tayyorgarligi tizimining poydevori bo'lib hisoblanadi. Dastlabki o'rgatish o'z tashkiliy, uslubiy, ilmiy va moddiy-texnika nuqtai nazaridan anchalik puxta asoslangan bo'lsa, sifatli bo'lsa, shunchalik sport o'rinbosarlarini tayyorlab bo'ladi. Ammo bu, albatta, mutaxassisning bilimiga, kasbiy ko'nikma va malakalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun mutaxassislarni tayyorlashga mo'ljallangan o'quv dasturining eng e'tiborli va asosiy bo'limlaridan biri boshlang'ich o'rgatish uslubiyati (texnologiyasi) bo'lib hisoblanadi.

Musobaqa jarayonida samarali natijaga erishishning asosiy shart sharoitlaridan biri bu voleybolchining texnik tayyorgarligi, texnik mahorati takomillashgan darajada bo'lishidir. Demak, o'rgatish jarayonining dastlabki va asosiy maqsadi bu o'yin texnikasini mukammal o'zlashtirishdir.

Harakat - (o'yin) malakalari to'pni uzatish, qabul qilish (himoya), to'pni o'yinga kiritish, zarba berish, to'siq qo'yish belgilangan bosqichlarda, ma'lum uslublar va vositalar yordamida o'zlashtiriladi, mukammallashtiriladi, takomillashtiriladi. Mazkur jarayon pedagogik, biopsixologik va biomexanik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

O'rgatish jarayoni bu pedagogik jarayon bo'lib, murabbiydan, o'qituvchidan katta mahorat, kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin shunday bo'lsada, harakatni (o'yin malakasini) ijro etish texnikasiga o'rgatish boshqa ahamiyatli sabablarga ham bog'liqdir: bolaning faolligi, mashg'ulotlarning soni, sifati, davom etish muddati, yordamchi texnik uskunalari, mashg'ulot

o'tkaziladigan joyning shart-sharoitlari, bolaning qiziqish, harakat boyligi, tajribasi va hokazo.

Shuni ham aytish zarurki, harakat texnikasini o'zlashtirish muddati bolaning oilaviy sharoitiga, uning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatiga hamda ruhiy holatiga bog'liqdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumot va o'rgatish jarayonida e'tiborga olinadigan omillar ma'lum uslubiy tartibda asoslangan rejalashtiruv hujjatlardan joy olishi kerak. Bundan tashqari bolaning ichki "sirli" imkoniyatlarini hamda mavjud omillarni aniqlash tanlov dasturi va mashqlari yordamida amalga oshirilishi zarur. Olingan natijalar o'rgatish uslublarini, bosqichlarini va texnologiyasini qo'llashda tayanch omil bulib xizmat qilishi kerak.

Dastlabki o'rgatish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi va bu bosqichlarning har biri o'ziga xos uslub va vositalarni o'z ichiga oladi.

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar o'yinchida jismoniy barkamollik va o'yinchi uchun zarur bo'lgan harakat ko'nikmalari va malakalarini sayqallash uchun foydalaniladi.

Barcha mashqlar o'z yo'nalishiga mos ravishda birlashgan holda mashq qilishning maxsus tayyorgarligi asosiy qismlarini tashkil etadi: umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik, o'yin tayyorgarligi. Har bir tayyorgarlik turida o'zining etakchi omillari borki, ular yordamida ko'zlagan maqsadga erishiladi. Shu bilan birga barcha turdagi tayyorgarliklar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Misol uchun agar o'quvchi jismoniy yaxshi tayyorlanmagan bo'lsa, u hujumda zarba berish texnik mashqini yaxshi bajara olmaydi. Bunday holda o'quvchini jismoniy tomondan chiniqtirish, zarba berish usulini ko'p marta takrorlashdan ko'ra foydaliroqdir.

Birinchi bosqich: - o'rganiladigan harakat texnikasi bilan tanishish. Bunda, aytib berish, ko'rsatish va tushuntirish uslublari qo'llaniladi. O'qituvchi shaxsan ko'rsatish bilan birga ko'rgazmali qurollardan foydalanadi: kinofilm, tasviriy film, sxema, maydon maketi va hokazo.

Namoyishni tushuntirishlar bilan qo'shib olib borish kerak. O'qituvchilarning dastlabki urinishlari ularda birlamchi harakat sezgisini shakllantiradi.

Ikkinchi bosqich:-texnikani soddalashtirilgan (oddiylashtirilgan) holatda o'rganish. Mazkur o'rganish bosqichida muvaffaqiyat ko'p holatlarda yondostiruvchi mashqlarning to'g'ri tanlanganligiga bog'liqdir. Ular o'zining tuzilishi shakliga ko'ra o'rganilayotgan harakat texnikasiga yaqin va o'quvchilar bajara oladigan bo'lishi kerak. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan harakat (hujum zarbasi), uni tashkil qiluvchi asosiy zvenolarga (qismlarga) ajratib beriladi. Bu bosqichda boshqarish uslublaridan foydalaniladi (buyurish, ko'rsatma berish, ko'rish va eshitish, ko'rib ilg'ash, texnik vositalar va hokazo) hamda ko'rgazmali harakat (o'qituvchining bevosita yordami, yordamchi jihozlarni qo'llash), axborot (to'pga bo'lgan zarba kuchi, tushish aniqligi, yorug'lik yoki ovozni belgilash) kabi uslublar alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Uchinchi bosqich:- texnikani murakkablashtirilgan sharoitda o'rgatish. Bunda quyidagilar qo'llaniladi: takroriy usul, harakatni murakkab sharoitlarda bajartirish, o'yin va baholash uslubi, qo'shma uslub, davra aylana mashqlari. Takrorlash uslubi bu bosqichda eng asosiydir. Ko'p marotaba takrorlashgina malakani shakllantiradi. Malaka hosil qilish uchun takrorlash turli sharoitlarda mashq bajarishni (harakat sharoitini o'zgartirishni, asta-sekin murakkablashishni) taqozo etadi. Hattoki charchaganda ham mashqlar bajartiriladi, qo'shma va o'yin uslublari bir vaqtni o'zida texnikani sayqallashtirishga hamda maxsus jismoniy sifatlarni o'stirish masalalarini hal qilishga, hamda texnik-taktik tayyorgarlik va o'yin mahoratini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich:- harakatni o'yin jarayonida mustahkamlashni ko'zda tutadi. Bunda bajarilgan harakatlarni tahlil qilish uslubi qo'llanadi (rasmlar, jadvallar, o'quv filmlari, tasviriy filmlar), o'yin jarayonida texnik-taktik, maxsus tayyorgarlik topshiriqlari, o'yin va "bellashish" usullari.

Tayyorgarlik va o'quv o'yinlarida har bir usulni (malakani) o'rganish, uni takomillashtirish va mukammallashtirish ko'zda tutiladi. Malakani mustahkamlashning eng yuqori vositasi bu musobaqalashishdir.

O'qitish (o'rgatish)da faol uslublar katta imkoniyatlarga egadir. Ularning orasida muammoli o'qitish (muammoli vazifalarni qo'yish) va o'zining o'zlashtirishini baholash uslubi alohida ahamiyatga ega. Muammoli vazifalarni qo'yish, uning echimini qidiruvchi holatni, vaziyatni vujudga keltiradi, o'zini baholash esa harakatlanish faoliyatini yana ham faollashtirishga olib keladi, bu o'quvchi qiziishini yana ham ortiradi, hamda ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Yuqorida aytilganlarni voleybolga qo'llash muhim ahamiyatga ega bo'lib, asosiy mohiyati shundaki, natijalarni ko'rib turish, tushunish, maqsadga yaqinlashayotganligini aniq sezib turishdir.

### **Yosh voleybochilar faolligini oshirish usublari.**

Aniq bir o'yin qoidasini qisqacha mazmuni va ahamiyati aytib berilgandan so'ng, yuqoridan ikki qo'l bilan to'pni etkazib berish, uni bajarish usuli (texnikasi) namoyish qilinadi va o'quvchilarga ham shu usulni bajarishga imkon beriladi. So'ngra muammoli savol qo'yiladi: "qo'l (panjalar) bilan to'pning to'qnashishi qaerda amalga oshadi?". Javob berishga harakat qilingan ko'pgina urinishlarda biz quyidagi javobni aytishimiz amri mahol: yuzimiz qarshisida. So'ngra yangi savollar beriladi, "Nega to'pni uzatayotganda qo'llar tirsakdan bir oz bukiladi? Ularning bukilishi burchagini nima belgilaydi?".

O'quvchilarning yuqoridagi savollarga javob qidirishida ularning kuch g'ayratini biomexanik qonuniyatlar tomon yo'naltiriladi, shunga ko'ra, savolning birinchi omiliga javob maqsadga teng kelsa masofa tanlash bilan erishish bo'lsa (fazoviy nuqtai nazardan), ikkinchidan to'p uzatuvchining kuchlilik, tezkorlik imkoniyati darajasidir. Yuqoridagi talablar asosida yana bir bor to'p uzatishni bajarishni taklif qilamiz. Bizni vaqt ko'p sarflanayotgani qizitirmaydi, chunki u kelajakda o'zini oqlaydi.

O'yinchining boshlang'ich holatda turishida nega qo'llari beligacha egilgan holatda bo'ladi? Bunda to'pni harakat yo'nalishi, tabiiy harakatlanishi, tezlikni oshirishga yordamlashuvi hisobga olinadi.

O'z-o'zini baholash: imo-ishoraga javoban boshlang'ich holatni egallash va o'qituvchi-ustozning andozasiga yoki kino yozuviga solishtirish:

Harakatlanishning. Muammoli savollar:

1. Harakat usuli nimaga asoslanadi? To'pning uchish holatiga, o'yinchini qaddi-qomatiga, to'pni yo'nalishi, tezligi, bosib o'tgan izi (traektoriyasi)ga.

2. To'pga tomon o'z vaqtidagi harakatni qaysi omillar ta'minlaydi? Kuzatuvchanlik, tayyorgarlik, tezlik.

O'z-o'zini baholash: imo-ishora bilan qilingan belgiga javoban har hil usul bilan harakatlangandan so'ng sherigi yoki o'qituvchi murabbiy tanlab bergan to'pni yuz ustida tutib olish yoki to'g'ri yozilgan qo'l bilan pastdan ilib olish.

Yuqoridan ikki qo'llab to'pni etkazib berish. Muammoli savollar:

-qo'l panjalari bilan top qaerda to'qnashadi? Yuz ustida, yuqorida, ko'krak elka qarshisida.

-To'pni uzatishda qo'lni tirsakdan buqilish burchagi nima bilan belgilanadi? qo'lni tezkor kuchlilik darajasini rivojlanish sifati bilan.

-To'pni uzatishda uning aylanmasdan uchishi nimalarga bog'liq? To'pni to'ri chiziq bo'ylab uning uchishini yo'nalishida ta'sir ettirishga bog'liq.

O'z-o'zini baholash:

Boshlang'ich holatda turib va har hil yo'nalishlarda harakatlangandan so'ng 1-2 kg.li to'ldirilgan to'pni oldinga yuqoriga uzatish (irg'itish).

To'pni o'z ustida yoki devordagi nishonga 20-30 sm masofadan (etkazib) irg'itib (bir necha marotaba) berish (uzatish).

To'pni devordagi aniqlik nishoniga irg'itish (10 tadan uzatish), nishon (to'pni diametriga), ya'ni 10, 30, 50 va h.k sm bo'lgan ma'lum radiusli aylanalardan iborat. Nishon markazi noldan 4 m balandlikda joylashgan. Devorgacha bo'lgan masofa 2,5 m. Ko'rsatkich 40 ball (nishon markazi urish 5 ball, ikkinchi aylanma 4 va h.k.).

To'pni aylanmasdan uchishi. To'pni ikki qo'llab qabul qilish. Muammoli savollar:

-qo'llar ko'krak oldida qanday holatda bo'lishi kerak?

-To'p elka oldiga nisbatan qanday burchak ostida qabul qilinadi?

O'z-o'zini baholash:

qo'lni elka balandligidan ko'tarilmagan holda to'p 6-8 m masofaga, qo'lni to'rg'i tutgan holda pastdan oldinga yuqoriga uloqtirish.

Ko'rish va eshitish signallariga javoban joyida turib va turli yo'nalishdagi harakatlardan so'ng dastlabki to'rt holatni qabul qilish.

Devordagi nishonga tegib qaytayotgan to'pni qabul qilish, aniqlikka 30 ball. Devorgacha bo'lgan masofa 3 m. hujum maydonida (3-2 zona orasida) 5 tadan to'p uzatish.

Hujum zarbasi: Muammoli savollar:

-Depsinishda qo'l harakati qanday rol o'ynaydi? (tayanish bosimi oshadi).

-Nima uchun to'pni urishda qo'l to'rg'i bo'lishi kerak? Kuchni oshiradi. Kaft-panja harakatlarini faolligiga ko'ptokni urishda qanday erishiladi?

qo'lni faol joyi bilan qomatining tezkor kuch sifatini rivojlantirish darajasiga bog'liq.

-Hujum texnika zarbasining rasionalligi nimasi bilan farq qiladi? (sakrash balandligi, qo'l kafti zarbasini aniqligi va kuchliligi bilan farqlanadi.)

-O'z-o'zini baholash: joyida turib qo'llar ishtirokida va qo'l ishtirokisiz ikki oyoqlab depsinish balandliklarning farqi? qo'lda elka balandligidan tushirilmagan holda tennis to'pini yugurib kelib, bir qo'llab to'r ustidan uloqtirish.

To'pni mustaqil balandlikka irg'itib, yugurgandan keyin bir qadam qo'yib to'r ustidan hujum zarbasini berish.

To'siq qo'yish. Muammoli savollar:

-To'siq qo'yishni faol va sustligini nima belgilaydi? (to'r orqali raqib tomonga o'tkazilgan qo'l kattaligi)

-Hujum zarbasini to'siq qo'yish uchun sakrash vaqti qanday aniqlanadi?

(uzatish traektoriyasi bo'yicha). To'p baland bo'lsa, hujumchini sakrashidan keyin, o'rtacha balandlikda bo'lsa, hujumchi bilan birgalikda, past bo'lsa, hujumchidan oldin bajariladi.

-To'siq qo'yish samaradorligi qanday omillar bilan shartlanadi? Sakrovchanlik, o'z vaqtida sakrash, zarba yo'nalishini va to'r orqali raqib tomoniga o'tgan qo'llar ancha uzoliqda ekanligini aniqlash.

O'z-o'zini baholash:

Joyidan sakrash va harakatdan keyin sakrashda qo'lni to'r orqali o'tish masofasi 20 sm va undan ortiq bo'lishi mumkin.

To'pni mustaqil irg'itib berilgan zarbaga qo'yilgan to'siq qo'yish samarasi 70-80 foiz. Shunday qilib, o'rgatish jarayoni yuqorida qayd etilgan muammoli savollar asosida tashkil etish bolalarni mustaqil fikrlashga, erkin harakat qilishga va turli o'yin malakalarini o'ziga xos mahorat bilan bajarishga undaydi.

O'rgatish jarayonining turli bosqichlarida qo'llaniladigan uslublarni, vosita va o'rgatish texnologiyasi samaradorligini aniqlash, nazorat qilish va baholash ko'p yillik sport tayyorgarligi tizimining asosiy talablaridan biridir. Bu tadbirni murabbiylar o'rgatish jarayonining har bir bosqichida, sport tayyorgarligining birinchi davrlarida amalga oshiradilar. Jarayonni samarasini aniqlash, muntazam pedagogik nazorat qilish, baholash, mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish, o'quvchilar o'rganilayotgan texnik malakalarni qay darajada o'zlashtirganliklari yoki ularning jismoniy imkoniyatlari belgilangan maxsus nazorat va sinov mashqlari yordamida joriy etiladi. Ayrim vaqtlarda, imkoni bo'lsa, texnik yoki jismoniy tayyorgarlikni baholash maxsus apparatlar orqali aniqlanadi. Olingan natijalar tahlil qilinadi, muhokamada taqdim etiladi. Agar bordiyu natijalar o'rgatish jarayonini yoki jismoniy sifatlarni bo'sh, noto'g'ri yo'nalishda rivojlanganligini isbot qilsa, unda o'rgatish jarayoniga, rejalashtiruv hujjatlariga kerakli tuzatishlar, o'zgartirishlar kiritiladi, so'ng ma'lum muddat o'tgandan keyin qayta tekshiriladi.

## **Yozgi oromgohlarda bolalar bilan voleybol bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uslubining xususiyatlari.**

Voleybol o'yinini o'rganishning 11-12 yoshdan boshlash kerak. Bu yoshda bolalar tanasi muntazam rivojlanib, bo'y, mushaklar kuchi va vazni o'sishi kuzatiladi. Shu bilan birga suyak-mushak sistemasi yuqori darajada rivojlanib, qo'l bilaklarida voleybol uchun zarur bo'lgan mustahkamlik va taranglik oshadi. Qiz bolalar bu davr jinsiy etilish davrining o'sishi bilan to'g'ri keladi. Ularning tanasida marfolagik va funkstional o'zgarishlar vujudga kelib, chanoq qismi kengayadi va vazn ortishi kuzatiladi. bu yoshdagi o'g'il bolalarda barmoqlar mushagi kuchining oshishi aniq ko'rinadi. Yurak mushaklarining kuchi, yurak urish hajmi oshib, puls tezligi kamayishi ham kuzatiladi. Bola tanasi yaqinlashayotgan ishlarga yondashishni tez amalga oshiradigan xususiyatga ega, bu esa asab jarayonlarining harakatchanligiga bog'liq. Bolalar ruhiy holati o'zgaradi, "kattalik hissi" paydo bo'lib, ular hayotigi moslashish, ular harakatiga taqlid qilish kabilar kuzatiladi. Shuning uchun bolalar bilan ishlashda mashqlarni aniq holda, ya'ni taqlid uchun o'rnak bo'ladigan qilib ko'rsatish zarur. 11-12 yoshda asosan diqqat, xotira, iroda va idrok tezligi kabilar juda tezlik bilan rivojlanadi. Qabul qilish qobiliyati o'sib, qiyin harakatlar yodda saqlanadi va o'z harakatlarni tahlil qilish oshadi. Bolalar diqqatini bir joyda jamlab, qiyin harakatlarni bajara oladilar va ularning sifatini oshiradilar. Bundan kelib chiqib, shuni yodda tutish kerakki, bu yoshda bola tanasi nafaqat tez charchab, lekin ishlash qobiliyatini juda tez tiklaydi, shuning uchun mashg'ulot paytida harakatlarni xilma-xillashtirish zarur bo'ladi. Voleybolchi uchun harakatlanadigan predmet (to'p) bilan o'zaro harakatlanishni bilish juda muhim. Bu erda ko'rish qobiliyati katta ahamiyatga ega. 11-12 yoshli bolalarda markaziy va periferik ko'rish qobiliyati paydo bo'ladi. To'pning uzoqligi va yaqinlashish tezligini to'g'ri baholash o'yin mashqlarida umumiy koordinastiyani osonlashtiradi. Keyinchalik esa bu sifatlar voleybol mashqlarida mukammallashadi. Voleybolchi faoliyatining fe'l-atvorida o'yin vaziyatlari almashinuvi bor, jismoniy og'irliklar esa bolalarga



o'yin mashqlarini to'liq o'zlashtirish imkonini beradi. Lekin bu bilan 12 yoshdan oshgan bolalarda mashg'ulotlar kerakli natijalar bermaydi degani emas. Amaliyotda, yuqori otryadli voleybolchilar voleybol bilan shug'ullanishni kech boshlagan degan misollar bor. Gap shundaki, 11-12 yoshli bolalar hali o'z qobiliyatini oxirigacha ko'rsata olmaydi va sport iste'dodini aniqlay olmaydi. O'quv jarayoning to'g'ri tuzilishi o'tkazib yuborilganlarni qoplay oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, voleybol o'yinidagi ko'p qirralilik bolalar jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni yo'qotib, maktab o'quv davrida harakatlanish faolligini oshirishga ko'maklashadi. Voleybol bilan shug'ullanish kuch, chaqqonlik, epchillik va chidamlilik kabi sifatlarni ishlab chiqaradi. Voleyboldagi barcha harakatlar tabiiy xususiyatga ega bo'lib, yugurish, sakrash va irg'itishga asoslanadi, agar to'g'ri o'rganilsa, o'quvchilar tomonidan juda oson qabul qilinadi. Hatto hisiyotligiga qaramasdan, bunday katta hajmdagi jismoniy og'irliklar bajariladi, ammo juda charchatadigan harakatlar olib tashlangan, ammo voleybol o'zining xususiyatiga ko'ra me'yoriy o'yinlar qatoriga kiradi. Bunga misol qilib, shuni aytish kerakki, yuqori malakali sportchi-voleybolchi bir o'yinda 1.5 kggacha vazn yo'qotadi (bir vaqtdagi sezilarli chiqim va asab quvvati), boshlayotgan voleybolchi esa, bunda o'yinning faqat oddiy mashqlarini davomlik bilan bajarib, vazn yo'qotmaydi. Me'yorlik xususiyati voleybol o'yinini barcha yoshdagilar uchun mos kelishiga va yuqori darajali jismoniy tayyorgarlikka xizmat qiladi.

Yuqorida aytilganidek, mashg'ulotlarda ma'lum bir og'irliklar berilishi sababli, bolalar yoshi rivojlanishining anatomo-fiziologik va ruhiy xususiyatlarini yodda tutishimiz kerak. Ammo bu og'irliklar davomiy emas va faol hordiq bilan almashinishi darkor. Buning uchun mashg'ulot vaqtida ko'pgina voleybol elementlari bo'lgan harakatli o'yinlar, o'yin mashqlariga o'xshash bo'lgan mashqlar, qatnashuvchilar soni kamaytirilgan, oddiy o'quv o'yinlari qo'llaniladi.

Bolalar texnik xatosi chegaralangan o'quv o'yinlarni tez qabul qilib o'rganib oladilar. "G'irrom o'yin" degan nuqtai nazari tez o'rnashadi va uni

tuzatish qiyin deb bo'lmaydi. Bolalarda yosh ortgan sari voleybolga bo'lgan qiziqishini pasaytiradigan xatolarni hamma vaqt hushtak chalish orqali tuzatib, ularga ruhiy shikast bergandan ko'ra texnik xatolarni tuzatish osonroq.

O'yin mashqlarini o'rgatish jarayonida bolalar avvalambor o'yining texnik asoslariga qaratish zarur (boshlanish holati, joylashish, sakrashlar, olib borishlar), undan keyin esa og'irliklarni orttirish bilan o'yin texnikasi mukammallashtiriladi.

Mashg'ulotlarda texnik mashqlarni o'rganish va ularning samaradorligini oshirish uchun to'p bilan yakka tartibda ishlash, juftlik, uchliklarda mashqlar olib boriladi. O'yin mashqlari avval ularni ko'rsatishidan boshlanib, keyin esa yodda tutish uchun ko'p martali takrorlashlar va topshiriqlar bajariladi. O'rganish jarayonida o'yin qoidalari, uning borish yo'li, o'yinchilar joylashgan o'rni tushuntirilgan holda, o'quv o'yinlari tadbiiq qilinadi.

Ko'p yillik amaliyot guruhli mashqlarda bir necha to'plardan almashtirish yo'llari bilan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga biroz shubha bilan qaraydi. Olib borishda samaradorlikni oshirish uchun juftlikda birta to'p bilan mashqlar bajarilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, chunki bunda bor diqqat faqat birta to'pga qaratiladi. Agar shug'ullanuvchi o'z diqqatini bir necha ob'ektga qaratishga majbur bo'lib qolsa, sezilarli darajada o'yin mashqlarini bajarishga qiynaladi. Bundan tashqari bir necha mashqlarni bajarishda o'yinchi shoshiladi va texnik xatoliklarga yo'l qo'yiladi.

Mashg'ulotlarda yordamchi snaryadlardan (to'p ushlagichlar, to'xtatish panjalari, katapultalar va shular) foydalanish maqsadga muvofiq emas. Bu hollarda to'p, to'r, zar devorlaridan foydalanish katta samara beradi. Harakatsiz to'pni urish va katapultalarga quvvat berish kabi snaryadlarni tayyorlashga sarflanadigan vaqt mobaynida hujum qiladigan va hujum qabul qiladigan o'yinchilarga foyda keltiradigan mashqlardan foydalanish mumkin, chunki ular baribir hujumni o'rganishadi.

Mashg'ulotlarda juftlik sheriklar navbatma-navbat vazifalarini o'zgartirilishi(asosiy va yordamchi),bunda olib borishda, hujum va himoyada

mashqlar bajariladi. Keyin esa (o'yin texnikasi o'rganilgandan so'ng) shug'ullanuvchilar soni uchtagacha (hujum, qabul qilish, olib borish) oshiriladi. Shug'ullanuvchilar sonining to'rttagacha va undan ortiq bo'lishi mashqlar samarmasini pasaytiradi, chunki bunda mashg'ulot zichligi pasayadi.

### **I Bob xulosasi.**

Mamlakatimizda voleybolni ommalashtirish va rivojlantirish, uning ravnaq topishida O'zbekiston voleybol Federatsiyasi rahbarligi va boshqaruvi katta rol o'ynaydi. Har bir uchrashuvni hakamlar tarkibi boshqarib boradi va bu tarkibga birinchi hakam, ikkinchi hakam, kotib va chiziq hakamlari kiradi. Yozgi dam olish oromgohlarida musobaqalar aylanma, olimpia yutqazgan chiqib ketish va aralash usullardar o'tkaziladi. Musobaqalar davomida samarali natijalarga erishishning asosiy shart-sharoitlardan biri bu o'yinchining texnik tayyorgarligi, uning mahorati takomillashgan bo'lishi kerak. Demak, o'rgatish jarayonining dastlabki va asosiy maqsadi o'yin texnikasining mukammal o'zlashtirish zarur. Voleybol o'yinnini 11-12 yoshdan boshlash kerak. Xulosa qilib aytganda, voleybol bilan shug'ullanish kuch, chaqqonlik, epchillik va chidamlilik kabi siaftlarni rivojlantiradi.



## **II BOB. BOLALARNING DAM OLISHINI TASHKIL ETISH VA SOG'LOMLASHTIRISH.**

Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomashtirish – bu sanitariya-gigiena, sanitariya-epidemiologiya hamda xavfsizlik talablariga to'liq javob beradigan va qulay sharoitda bolalarning belgilangan kundalik hayot tarziga rioya etishi, sifatli ovqatlanishi, ijodiy salohiyatining rivojlanishi, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarining shakllanishi, dam oldirilishi, salomatliklarining tiklanishi va mustahkamlanishi, jismoniy tarbiya, sport va turizm bilan shug'ullanishlarini ta'minlovchi kompleks tadbirlar majmuidir.

**Dam olish** - bolalar organizmining jismoniy va ruhiy funkstiyalari tiklanishiga, uning faolligini oshirishga yo'naltirilgan maxsus ijtimoiy tadbirlar majmuidir.

**Sog'lomashtirish** - bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash, rastional ovqatlanish hamda sog'lig'ini mustahkashlashga yo'naltirilgan tibbiy, gigienik, jismoniy tarbiya tadbirlarining majmuidir.

### **Respublika oromgohlarida bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomashtirish konstepstiyasi**

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab yoshlarni har tomonlama barkamol avlod etib tarbiyalash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilab olindi.

Mazkur yo'nalishda mamlakatimizda keng miqyosdagi islohotlar amalga oshirilib, bu boradagi ishlar ko'lami yil sayin kengayib va takomillashib bormoqda.

Amalga oshirilgan sa'y-harakatlar o'zining samarasini berib, yoshlarimiz bilim darajasi oshmoqda, ularning jismoniy holati yildan yilga rivojlanib bormoqda, yoshlarimizning jahon maydonlaridagi turli jabhalarda erishayotgan yutuqdari sharafiga davlatimiz bayrog'i baland ko'tarilib, uning nufuzi ortib bormoqda.

Mamlakatimizda bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomashtirish sohasida erishilgan yutuqlar ham bu borada hukumatimiz

tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar natijasidir.

Shu bilan birga, oromgohlarga jalb etiladigan bolalar salmog'ini ko'paytirish, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, oromgohlar nufuzini yanada yuksaltirish maqsadida - ushbu yo'nalishdagi ishlarni kompleks ravishda takomillashtirish va rivojlantirishni, shuningdek uning doimiy faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni taqozo etmoqda.

Mazkur Konstepsiyada bolalarning dam olishni tashkil etish va sog'lomlashtirish asosiy tushunchalari, maqsad va vazifalari, oromgohlar turlari va yo'nalishlari, oromgohlarda bolalarga ko'rsatiladigan xizmatlar hamda erishiladigan natijalar o'z aksini topgan.

Konstepsiya o'sib kelayotgan avlodni bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish hamda har tomonlama barkamol avlod etib tarbiyalashning asosiy talab, mezon va g'oyalarining mamlakat miqyosidagi to'laqonli tizimni belgilaydi.

Konstepstiya O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, qonun, "Kasaba uyushmalari va ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"ga qonunlariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvenstiya"sig'a asoslangan holda ishlab chiqilgan.

Konstepsiya bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishni yanada takomillashtirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatda hamda turli darajadagi dastur va rejalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu konstepsiya, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha turdagi oromgohdar faoliyatiga tatbiq etiladi.



## 2.1. Oromgohlarining faoliyatining asosiy tamoyillari.

Oromgohdar faoliyatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- bolalar hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlagan hamda ratsional ovqatlanishni tashkil etgan holda, ularning sifatli dam oldirilishi va sog'lomlashtirilishini tashkil etish;
- bolalar manfaatlarining ustuvorligi, ularning ijodiy rivojlanishi hamda o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- ijtimoiy me'yorlar va oromgoh qoidalariga rioya qilgan holda, pedagog va etakchilarning bolalar shaxsini rivojlantirish va ularning ko'ngilli dam olishlarini ta'minlash borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvatlash;
- bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish mobaynida bolalar ongiga umuminsoniy va milliy qadriyatlarni singdirish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratish.

Har bir oromgoh jamoasi o'z tashkiliy-pedagogik faoliyatining yo'nalishlarini yuqori darajadagi tegishli tashkilotlar tavsiya va ko'rsatmalari asosida mustaqil ravishda ishlab chiqadi.

U o'z ichiga sog'lomlashtirish, rivojlantirish, ta'lim-tarbiyaviy va bolalarni ijtimoiy tiklash dasturlarini ishlab chiqish, bolalarni ijtimoiylashtirish, ular o'rtasida o'zaro hamkorlikning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish kabilarni qamrab oladi.

### Oromgohlar turlari

Oromgohdar 2 turga ajratiladi:

**Stasionar oromgohlar** - stasionar baza asosida qurilgan yoki vaqtinchalik ijaraga olingan ob'ektlarda tashkil etilib, unda bolalar smena davomida yashaydi.

Mazkur oromgohdar stasionar oromgohlar joylashuvi, ta'minoti va kun tartibini tashkil etishning sanitariya talablariga asosan faoliyat olib boradi.

**Kunduzgi oromgohlar** - umumta'lim maktablari, akademik listey va kasb-hunar kollejlari, sport, ijtimoiy xizmat ko'rsatish, sanatoriy-kurort

muassasalari, klublar qoshida vaqtinchalik tashkil etilib, unda bolalar faqatgina kunduz kuni dam oldiriladi va sog'lomlashtiriladi.

Ushbu oromgohlar faoliyati ta'til davrida bolalarning kunduz kuni dam olishlarini ta'minlash va sog'lomlashtirish oromgohlari joylashuvi, ta'minoti va kun tartibini tashkillashtirishning gigaena talablariga muvofiq yuritiladi.

### **Oromgohlarning faoliyat yo'nalishlari.**

Oromgohlar bolalarning yoshini e'tiborga olgan holda, tarbiyaviy ishlarning mazmuni bo'yicha quyidagi ixtisoslashgan yo'nalishlarda tashkil etilishi mumkin:

**1. Intellektual rivojlantirish oromgohlari.** Oromgohdar fan olimpiadalari, ta'lim sohasining turli darajadagi musobaqalari g'oliblari bo'lgan 10-14 yoshdagi bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirish uchun yo'naltirilgan bo'lib, unda bir yoki bir nechta fanlar yoxud tillar chuqurlashtirilgan tarzda o'rganilishiga e'tibor beriladi.

**2. Sport-sog'lomlashtirish oromgohlari.** Oromgohlar 8-18 yoshdagi bolalar va o'smirlar uchun sport yo'nalishidagi o'quv muassasalari tarbiyalanuvchilarining o'quv-mashq jarayonini davom ettirishlari, ularning sport mahoratini takomillashtirish, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, sog'lig'ini mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lib, unda bolalarning yoshi va sport turining o'ziga xos xususiyatlari asosida har xil guruhlar tuzilishi mumkin.

**3. Sanatoriy-sog'lomlashtirish oromgohlari.** Oromgohlar yurak qon-tomir tizimining kasallanishi, nafas olish, ovqat hazm qilish organlari, tayanch-harakat apparatining o'ziga xos bo'lmagan xususiyatlari bilan betob bo'lib turadigan 7-14 yoshdagi bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirish uchun tashkil etiladi.

**4. Mehnat va dam oldirish oromgohlari.** Oromgohdar umumta'lim maktablari, akademik listey va kasb-hunar kollejlari 15-18 yoshdagi o'quvchilarining ijtimoiy foydali mehnati dam oldirish va sog'lomlashtirish bilan birga qo'shib olib borilishiga yo'naltiriladi. Unda bolalar ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlanadi, ularshng mehnat ko'nikmalari shakllantiriladi.

O'quvchilaryushg qiziqishlari va ehtiyojlarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish oromgohni tashkil etishning asosiy sharti hisoblanadi.

**5. Harbiy-sport oromgohlari.** Oromgohdar 12-17 yoshdagi bolalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarni Vatan mudofaasiga, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari saflarida xizmat qilishga tayyorlash maqsadida tashkil etiladi.

**6. Ekologik-biologik, o'lkashunoslik oromgohlari.** Oromgohlarda 7-14 yoshdagi bolalar uchun sayyohlik-o'lkashunoslik va ekskursiya ishlarining serqirrali turlari tashkil etiladi, ularga mamlakatimizning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy jihatdan o'ziga xos jihatlari chuqur o'rgatiladi.

**7. Ixtisoslashgan bolalar oromgohlari.** Oromgohlar 7-14 yoshdagi bolalarda etakchilik va faollikni shakllantirish, ularning ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini oshirishga yo'naltiriladi.

Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishni amalga oshirish bo'yicha mutasaddi tashkilotchilarning taklif va tashabbuslari bilan boshqa yo'nalishlarda ham oromgohlar faoliyati yo'lga qo'yilishi mumkin.

### **Oromgohlarda ko'rsatiladigan xizmat turlari.**

Oromgohlarda bolalarga ko'rsatiladigan xizmatlar quyidagilardan iboratdir:

**1. Jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, aloqa va transport xizmatlari.** Bunda:

- oromgohlar va ularning atrofidagi hududlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ichki ishlar organlari xodimlarining doimiy navbatchiligi tashkil etiladi;
- bolalarning daryo, anhor yoki suv havzasi bo'yida bo'lishlari, sayrga chiqishlari oromgoh etakchisi yoki tarbiyachisi kuzatuvisiz bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi;



- har bir oromgohda yong'in chiqish va tabiiy ofat ehtimoliga qarshi boladarni ko'chirish rejasi ishlab chiqiladi va shunga asosan tayyorgarlik ko'riladi;
- bolalar yong'in xavfsiyuligi va jarohatlanishning oldini olish talablariga javob beruvchi turar-joy bilan ta'minlanadi;
- oromgoh hududida begona kishilarning bo'lishi yoki yashashiga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi;
- oromgohlardagi bolalar hamda ularga xizmat ko'rsatayotgan xodimlarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar bo'yicha hushyorligini oshirish yuzasidan profilaktik tadbirlar o'tkaziladi;
- har bir oromgoh shaharlararo telefon bilan ta'minlanadi, agar oromgoh joylashgan hududga telefon tarmog'i o'tkazilmagan bo'lsa, u holda uyali aloqa vositasi bilan ta'minlanadi;
- bolalar belgilangan joydan texnik jihatdan soz bo'lgan transport vositalarida yo'l patrul xizmati kuzatuvida oromgohlarga olib boriladi va olib kelinadi;
- bolalarni sayohat, ekskursiya va safarlarga yoki oromgoh tomonidan o'tkaziladigan boshqa tadbirlarga olib borish va olib kelish uchun transport vositalari ajratiladi.

**2. Oromgohlarni tibbiy yordam bilan ta'minlash,** Davlat sanitariya nazoratini o'rnatish, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda sifatini nazorat qilib borish xizmatlari. Bunda:

- har bir oromgohda tibbiy punkt tashkil etilib, u tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha dori-darmonlar va tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlanadi;
- bolalarga doimiy tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun shay bo'lgan tibbiyot muassasalari oldindan belgilab qo'yiladi;
- bolalar oromgohga yuborilishidan oldin shifokor va tibbiyot hamshirasi tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi, tibbiy hujjatlar tekshiriladi, agarda

bolada biror kasallik alomati aniqlansa, uning oromgohga joylashtirishga ruxsat berilmaydi;

- bolalarning yoshi va mavjud kasalliklarini e'tiborga olgan holda kun tartibi ishlab chiqiladi, rastional ovqatlantirish tashkil etiladi va muntazam ravishda nazorat qilib boriladi;
- bolalarning sog'lig'i muntazam ravishda kuzatib boriladi, ular shifokor tomonidan reja asosida tibbiy tekshiruvdan o'tkazilib boriladi;
- bolalar uzluksiz ravishda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanadi, ularning sifati va belgilangan me'yorlarga mosligi doimiy ravishda nazorat qilib boriladi;
- mavsumiy kasalliklar (o'tkir ichak kasalliklari) ko'payishi mumkin bo'lgan oylarda tibbiyot hodimlari tomonidan kasallikning oldini olish va zarur bo'lganda davolash ishlari tashkil etiladi;
- yuqumli kasalliklar aniqlangan taqdirda, bu haqda sog'liqni saqlash muassasalariga va Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlariga belgilangan tartibda ma'lum qilinadi va bemor bola oromgoh rahbari nazoratida shifoxonaga yotqiziladi;
- oromgoh oshxonasi ishi ustidan nazorat olib boriladi, taomnoma tuzishda shifokor ishtirok etadi, tayyor ovqatlar kaloriyasi tekshirib boriladi, tashqaridan keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlari shifokor ruxsatisiz bolalarga berilmaydi;
- oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, saqlanishi, idish-tovoq va texnologik jihozlarni yuvishda sanitariya-gigiena talablariga rioya etilishi qattiq nazoratga olinadi;
- bolalar bilan sog'lom turmush tarzi bo'yicha mutaxassislar ishtirokida davra suhbatlari, uchrashuvlar, savol-javoblar, davolash-profilaktik, sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkaziladi, bolalarning yoshini e'tiborga olgan holda, ular o'rtasida turli yuqumli kasalliklarning oldini olish bo'yicha sanitariya-oqartuv ishlar olib boriladi;

- oromgoh joylashgan hudud sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan holda tartibga keltiriladi va tozalanadi;
- tibbiyot xodimlarining bolalar salomatligi va oromgohda sanitariya-gigiena talablariga rioya etilishi uchun, oromgoh rahbarining oromgoh hududi tozaligi uchun javobgar shaxs ekanliklari belgilab qo'yiladi;
- oromgohlarda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning monitoringi olib boriladi.

### **3 Ta'lim-tarbiyaviy xizmatlar**

- har bir oromgohda kutubxona yoki axborot-resurs markazi ishi tashkil etiladi, bolalar kitoblar, jurnal va gazetalar bilan ta'minlanadi;
- bolalarning qiziqishlari va iqtidorlari bo'yicha to'garaklar, bolalar studiyalari, kompyuter otryadi, mahorat darslari tashkil etiladi;
- olimpiadalar, viktorinalar, bilimlar tanlovlari, texnik va badiiy ijodiyot ko'rgazmalari o'tkaziladi, fan va san'at arboblari bilan uchrashuvlar uyushtiriladi;
- bolalarning yoshi va salomatligiga mos keluvchi ijtimoiy foydali va pedagogik maqsadga muvofiq mehnat turlari tashkil etiladi;
- xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, ayniqsa, pedagog va etakchilarni oromgoh faoliyatiga jalb etishda ularning o'z kasbini puxta egallaganligi, bola shaxsini hurmat qilishi, ijodkorligi, tashabbuskorligi, fidoyiligiga e'tibor qaratiladi.

### **4 Ma'naviy-ma'rifiy va madaniy xizmatlar.**

- oromgoh hududi, binolari, ma'naviyat va ma'rifat xonalari noan'anaviy va qiziqarli ravishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda o'ziga xos jihozlanadi va bezatiladi;
- bolalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni vatanparvarlik va milliy g'oya ruhida tarbiyalashga qaratilgan davra suhbatlari, uchrashuvlar o'tkaziladi;
- bolalarning yoshiga qarab, ular stol usti o'yinlari hamda o'yinchoqlar bilan ta'minlanadi;

- madaniyat va san'at to'g'risida suhbatlar, o'qilgan kitoblar, namoyish etilgan kinofilmlarning muhokamasi o'tkaziladi, badiiy va ilmiy-ommabop kinofilmlar, multfilmlar, slaydlar, videofilmlar namoyish etiladi;
- yosh tomoshabinlar teatri va boshqa ijodiy jamoalarning bolalar uchun spektakllari, konstert dasturlari namoyish etiladi, bolalarning muzeylar, ko'rgazmalarga tashriflari uyushtiriladi;
- bolalarning yoshi, qiziqish va qobiliyatlarini e'tiborga olib, milliy musiqa madaniyati, tasviriy san'at, xalq hunarmandchiligi, jahon madaniyati va san'ati durdonalari sport tadbirlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi;
- turli millatga mansub bolalar uchun yangi do'stlar orttirish, til o'rganish va do'stlik klublari tashkil etiladi;
- jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda jismoniy va aqliy mehnatga birday hurmat uyg'otish, ularda mehnatsevarlik va yaratuvchanlik xislatlarini shakllantirishga qaratilgan mahorat darslari tashkil etiladi;
- iste'dodli bolalar bilan ishlashda ularning o'z iqqidorlarini namoyon etishlariga sharoit yaratib beriladi va ular namunasida boshqa tengdoshlarining imkoniyatlari ham kashf etiladi;
- har bir tadbir o'tkazilishiga yuqori talab va mas'uliyat bilan yondashgan holda oromgohdagi barcha narsalar bolalar yoshiga mos, ularning qiziqishlari, dunyoqarashlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib tayyorlanadi;
- oromgoh tartib-qoidalariga amal qilish, odob-axloq me'yorlarini bajarish va yuksak intizomli bo'lish har bir tarbiyalanuvchiga tushuntiriladi;

oromgoh hududi bolalar dunyosiga mos ravishda turli banner va shiorlar bilan bezatiladi.

## **5. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xizmatlar.**

- bolalar uchun ertalabki gigienik gimnastika hamda davolash gimnastikasi o'tkaziladi;
- sport o'yinlari hamda mashg'ulotlarini o'tkazish uchun sport maydonchalari tayyorlanadi, ular sport jihozlari bilan ta'minlanadi;
- suzish, yugurish, yurish, futbol, voleybol, tennis, shaxmat, stol tennisi va sportning boshqa turlari bo'yicha sport musobaqalari hamda mashg'ulotlar tashkil etiladi;
- sportning ommaviy turlari bilan bir qatorda bolalarning yoshini, bilim darajalari, salomatliklari va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, maxsus mashg'ulotlar ham o'tkaziladi;
- bolalarning o'zlariga ma'qul bo'lgan sport to'garaklariga qatnashishi, turli musobaqalarda ishtirok etishi ta'minlanadi, mazkur tadbirlar belgilangan tartibdagi tibbiy ko'rik ostida amalga oshirilib, bu jarayon tibbiyot xodimlarining nazoratida bo'lishi muhimdir.

## **6. Sayyohlik va ekskursiya xizmatlari.**

- bolalarni sayyohlik safarlari va ekskursiyalarga olib chiqishdan oldin ularda ekstremal holatda o'zini tutish ko'nikmalari shakllantiriladi, xavfsizlik qoidalari tushuntiriladi;
- ishlab chiqilgan va tasdiqlangan yo'nalishlar bo'yicha turli ekskursiyalar (shahar bo'ylab, shahardan tashqarida, dam olish kuni yo'nalishlari va boshqalar) uyushtiriladi;
- o'lkashunoslik, yosh tabiatshunoslik va ekologik yo'nalishlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi, bu jarayonda bolalar tabiat hodisalarini kuzatishlari va taqqoslashlari, ekologik muammolarni amaliyotda o'rganishlari va muhokama etishlari, bevosita tajriba o'tkazishlari mumkin.

## **2.2. Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish.**

Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish yuzasidan tizimli nazorat va monitoringni ta'minlash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi guruh tashkil etiladi.

Mazkur muvofiqlashtiruvchi guruh zimmasiga bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishni ta'minlashga doir barcha chora-tadbirlarni tashkil etish, bu borada vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, mazkur yo'nalishda joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahliliy o'rganib, ularni yanada takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, zarur hollarda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish vazifalari yuklanadi.

Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishni amalga oshirish ishlariga davlat tashkilotlari bilan birga jamoat tashkilotlari ham keng jalb etiladi.

Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi ishlar ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda yoritib boriladi.

### **Erishiladigan natijalar.**

Mazkur Konsepsiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

- Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishning respublika miqiyosidagi tizimi yaratiladi;
- oromgohdarni yangidan qurish, kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilab borish tufayli respublika oromgohlar tarmog'i takomillashtiriladi;
- bolalarni tizimli ravishda dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish qamrovi yildan-yilga ortib boriladi;
- Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish yuzasidan tizimli nazorat va

monitoringni ta'minlash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi guruh darajasida oromgohlarda xizmat ko'rsatish borasidagi vazifalar va ularning ijrochilari aniq belgilanganligi sababli xizmat ko'rsatish darajasi va sifati yaxshilanadi;

- yosh avlodda hozirgi davrdagi "ommaviy madaniyat"ning turli illatlariga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantiriladi.

### **I. Umumiy qoidalar.**

1. Ushbu qoida talablari mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha turdagi oromgohlar faoliyatiga tatbiq etiladi.

2. Oromgoh o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, ushbu Nizomga hamda o'z ustaviga amal qiladi.

3. Oromgoh yuridik shaxs hisoblanadi, o'z ustaviga, mustaqil balansiga, bank hisob raqamiga, o'z nomi yozilgan muhrga, yuridik manzili ko'rsatilgan shtamp va blankalarga ega bo'ladi.

4. Oromgoh davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan oromgohning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda loyiha asosida qurilgan oromgohlarda, pansionatlarda, dam olish uylarida, sanatoriy-profilaktoriylarda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, maktab-internatlarda, kasb-hunar kollejlari va akademik listeylarda va boshqa ta'lim muassasalarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

Oromgoh bir nechta balansda saqlovchi va kasaba uyushmalari organlarining birgalikdagi mablag'lari asosida tashkil etilishi mumkin.

5. Oromgoh 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning sanitariya gigiena, sanitariya-epidemiologiya hamda xavfsizlik talablariga to'liq javob beradigan va qulay sharoitda ularning belgilangan kundalik hayot tarziga rioya etishi, sifatli ovqatlanishi, ijodiy salohiyatining rivojlanishi, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarining shakllanishi, dam oldirilishi, salomatliklarining tiklanishi

va mustahkamlanishi, jismoniy tarbiya, sport va turizm bilan shug'ullanishlarini ta'minlovchi, maktabdan tashqari ta'lim muassasi hisoblanadigan sog'lomlashtirish muassasasidir.

## **II. Oromgohning asosiy maqsadi, vazifalari va funkstiyalari**

1. Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishning asosiy maqsadi - bolalarning o'qishdan tashqari vaqtini sermazmun o'tkazish, ularning ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan hordiq chiqarishlarini ta'minlash, ular ongiga milliy g'oyani, vatanparvarlik tuyg'ularini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazishdan iboratdir.

2. Quyidagilar oromgohning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, o'quv-tarbiya ishlarini olib borish;
- bolaning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;
- bolani O'zbekiston halqining tarixiy va milliy an'analari va ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- bolalarni mehnatga ijobiy munosabatini tarbiyalash, bunda og'ir va majburiy mehnatga jalb etish ta'qiqlanadi.

3. Oromgoh o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funkstiyalarni amalga oshiradi:

- bolalar har tomonlama kamol topishlari va bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishlari uchun imkoniyat yaratish;
- bola shaxsining rivojlanishi, uning qiziqishlari, iqtidorining rivojlanishi, mustaqil bilim olishi va ijodiy mehnat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- oromgohning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish;



- bolalarning ehtiyojlarini o'rganish va shunga muvofiq ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan to'garaklar tashkil etish;
- fan asoslari bo'yicha qo'shimcha ta'lim berish;
- bolalarga san'at va hunarmandchilikning an'anaviy milliy turlarini o'rgatish;
- qobiliyatli, iqtidorli bolalarni aniqlash, ularning shaxsni rivojlantirishga qaratilgan musobaqalar, sayyohlik musobaqalari, texnika va badiiy ijodkorlik hamda boshqa tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazish.

### **III. Oromgohiing faoliyatini tashkil etish**

1. “Respublika oromgohlarida bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish Konstepsiyasi”ga muvofiq oromgohlar ikki turga stasionar va kunduzgi oromgohlarga bo'linadi:

- **stasionar turdagi oromgohdar** joylashuvi, ta'minoti va kun tartibini tashkil etishning sanitariya talablariga asosan faoliyat olib boradi;
- kunduzgi **oromgohlar** faoliyati ta'til davrida bolalarning kunduz kuni dam olishlarini ta'minlash va sog'lomlashtirish oromgohlari joylashuvi, ta'minoti va kun tartibini tashkillashtirishning gigiena talablariga muvofiq yuritiladi.

2. Oromgohdar bolalarning yoshini e'tiborga olgan holda, tarbiyaviy ishlarning mazmuni bo'yicha quyidagi ixtisoslashgan yo'nalishlarda tashkil etilishi mumkin:

**Intellektual rivojlantirish oromgohlari** fan olimpiadalari, ta'lim sohasining turli darajadagi musobaqalari g'oliblari bo'lgan 10-14 yoshdagi bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirish uchun yo'naltirilgan bo'lib, unda bir yoki bir nechta fanlar yoxud tillar chuqurlashtirilgan tarzda o'rganilishiga e'tibor beriladi.

“Yozgi intellektual-sog'lomlashtirish oromgohi” ikkita “Intellektual-akademik, amaliy-ijodiy o'quv mashg'ulotlar” va “Madaniy-ma'rifiy tadbirlar” dasturlari asosida faoliyat ko'rsatadi.

“Intellektual - akademik, amaliy - ijodiy o’quv mashg’ulotlar” dasturi asosida fan yo’nalishlari bo’yicha dars mashg’ulotlari, master klass uchrashuvlari, fan kechalari, turli viktorinalar, musobaqa va tanlovlar, qo’shimcha mashg’ulotlar tashkil etiladi.

Mashg’ulotlarni o’tkazishga mamlakatimizning taniqli sport yulduzlari shoir va yozuvchilar, san’at arboblari, etakchi olimlari va nufuzli oliy ta’lim muassasalarining ilg’or tajribali o’qituvchilar o’rnatilgan tartibda taklif etiladi.

**Sport sog’lomashtirish oromgohlari** 8-18 yoshdagi bolalar uchun sport yo’nalishidagi o’quv muassasalari tarbiyalanuvchilarining o’quv-mashq jarayonini davom ettirishlari, ularning sport mahoratini takomillashtirish, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, sog’lig’ini mustahkamlashga yo’naltirilgan bo’lib, unda bolalarning yoshi va sport turining o’ziga xos xususiyatlari asosida har xil guruhlar tuzilishi mumkin.

Oromgohdagi o’quv mashq mashg’ulotlari bolalar va o’smirlar sport maktablari (BO’S) da o’tkaziladigan o’quv jarayonining davomi bo’lib, sport turlari va o’quv materialini o’tilishining yillik jadvali bo’yicha BO’Slar uchun mo’ljallangan dasturlar asosida murabbiylar tomonidan olib boriladi.

Sport sog’lomashtirish oromgohining tarbiyachilari va etakchilari sifatida BO’S va olimpia zahiralari bolalar va o’smirlar sport maktablari, umum ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya o’qituvchilari faoliyat ko’rsatadi.

Ular bolalarning hayoti va salomatligini saqlash hamda sport-sog’lomashtirish oromgohida ishlashning o’ziga xos jihatlari bo’yicha maxsus seminar-instruktajdan o’tgandan keyingina bolalar bilan ishlashga qo’yiladi.

**Sanatoriy sog’lomashtirish oromgohlari** yurak qon-tomir tizimining kasallanishi, nafas olish, ovqat hazm qilish organlari, tayanch-harakat apparatining o’ziga xos bo’lmagan xususiyatlari bilan betob bo’lib turadigan 7-14 yoshdagi bolalarni dam oldirish va sog’lomashtirish uchun tashkil etiladi.

Sanatoriy turidagi oromgohlar shahar tashqarisidagi stasionar baza asosida qurilgan sog’lomashtirish oromgohlari, sanatoriya turidagi maktab-internatlar, sanatoriy-profilaktoriylar bazasida, shuningdek, o’rmon, daryo va

boshqa suv havzalari yoniga joylashgan hamda etarli darajada ko'kalamzorlashtirilgan va zarur jihozlar bilan ta'minlangan maskanlarda tashkil etilishi mumkin.

Sanatoriy turidagi sog'lomlashtirish oromgohlarida bolalarni sog'lomlashtirilishini tashkil etish - davolash-sog'lomlashtirish rejimiga qat'iy rioya qilingan holda chiniqish bilan birga olib boriladigan jismoniy davolash, to'yimli ovqatlanish va kasallik xarakteriga mos keluvchi profilaktik muolajaga asoslanishi kerak.

Sanatoriy turidagi sog'lomlashtirish oromgohlarida bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining amaldagi hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Sanatoriya turidagi sog'lomlashtirish oromgohdarida bolalar uchun jismoniy zo'riqish darajasi va rejimini shifokor belgilab beradi. Ushbu sog'lomlashtirish oromgohlarida olis masofali va uzoq davom etuvchi sayohatlar, harbiy o'yinlar va sport musobaqalarini o'tkazish tavsiya etilmaydi. Chidamlilikni ko'zda tutuvchi mashqlar (uzoqqa yugurish, tezroq yugurish), ayrim sport o'yinlari, futbol va boshqalar cheklangan holda o'tkazilishi kerak.

Ushbu turdagi oromgohdarda bolalarning jismoniy tarbiyasi ustidan qat'iy tibbiy nazorat o'rnatiladi va tarbiyaviy ishlar bilan uzviy birlikda olib boriladi. Bolalar bilan olib boriladigan sport ishlari tibbiy va pedagogik tomondan qat'iy nazorat o'rnatilishi shart.

**Mehnat va dam oldirish oromgohlari** umumta'lim maktablari, akademik listey va kasb-hunar kollejlarning 15-18 yoshdagi o'quvchshyurini ijtimoiy foydali mehnati dam oldirish va sog'lomlashtirish bilan birga qo'shib olib borilishiga yo'naltiriladi. Unda bolalar ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlanadi, ularning mehnat ko'nishalari shakllantiriladi. O'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish oromgohni tashkil etishning asosiy sharti hisoblanadi.

Mehnat va dam olish oromgohlari kunduzgi oromgoh sifatida korxonalar, tashkilot bazasida 12 kundan ko'p bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Oromgohga o'smirlarni qabul qilish ularni xohishiga binoan, ota-onasini roziligi va arizasiga ko'ra, shuningdek, ishga qabul qilish bo'yicha hujjatlar rasmiylashtirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

O'smirlar bilan mehnat shartnomalarni tuzish O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga asosan belgilangan korxonalar, tashkilot yoki fermer xo'jaligi tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek oromgoh o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilarining amaliyot o'tayotgan davrida tashkil etilib, amaliyot yakunida o'quvchilar korxonalar, tashkilot yoki fermer xo'jaligi tomonidan moddiy rag'batlantirilishi lozim.

Oromgoh ishtirokchilarining ovqatlantirish belgilangan sanitariya qoidalariga muvofiq o'smirlar organizmining fiziologik talablaridan kelib chiqqan holda hududiy sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan kelishilgan miqdorda tashkil etiladi.

Mehnat sharoitlari o'smirlar bajarilayotgan ishning turi va muddatlaridan qat'iy nazar, 18 yoshga etmagan o'smirlar uchun belgilangan sanitariya-epidemiologik qoidalar va mehnat muhofazasi talablariga javob berishi shart.

Oromgohning kun tartibini tashkil etishda o'smirlarni unumli mehnat faoliyatini jismoniy-sog'lomlashtirish va madaniy-ommaviy tadbirlar bilan uyg'un holda olib borish ko'zda tutiladi.

**Harbiy - sport oromgohlari** 12-17 yoshdagi bolalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarni Vatan mudofaasiga, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari saflarida xizmat qilishga tayyorlash maqsadida tashkil etiladi.

**Ekologik-biologik**, o'lkashunoslik oromgohlarida 7-14yoshdagi bolalar uchun sayyohlik-o'lkashunoslik va ekskursiya ishlarining serqirrali turlari tashkil etiladi, ularga mamlakatimizning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy jihatdan o'ziga xos jihatlari chuqur o'rgatiladi.

Mazkur oromgohlarda bolalar uchun sayyohlik, o'lkashunoslik, yosh tabiatshunoslik va ekologik yo'nalishlaridagi amaliy to'garaklar tashkil etiladi.

To'garak mashg'ulotlarida bolalarga tabiat hodisalarini kuzatishlari va

taqqoslashlari, ekologik muammolarni amaliyotda o'rganishlari va muhokama etishlari, bevosita tajriba o'tkazishlari uchun zaruriy sharoitlar yaratiladi.

Ekologik - biologik, o'lkashunoslik oromgohlaridagi to'garak mashg'ulotlarining faoliyati hududiy "Barkamol avlod" bolalar o'lkashunoslik va ekologiya markazlari tomonidan tashkil etiladi. Ushbu markazlar tomonidan ishlab chiqilgan va viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazi direktori tomonidan tasdiqlangan yo'nalishlar bo'yicha turli ekskursiyalar (shahar bo'ylab, shahardan tashqarida, dam olish kuni yo'nalishlari va boshqalar) uyushtiriladi.

**Ijtimoiy moslashuv oromgohlari** 7-16 yoshdagi bolalarda etakchilik va faollikni shakllantirish, ularning ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini oshirishga yo'naltiriladi.

Ijtimoiy moslashuv oromgohlari asosan xalq ta'limi vazirligi tizimidagi "Mehribonlik" uylarida tarbiyalanayotgan o'quvchilarning ta'til paytida dam olishlariga, salomatliklarini mustahkamlashga ko'maklashuvchi, qo'shimcha ta'lim-tarbiya beruvchi muassasadir.

Ijtimoiy moslashuv oromgohlarda pedagog - tarbiyachi sifatida "Mehribonlik" uylarining xizmatchilari, to'garak rahbarlari sifatida "Barkamol avlod" bolalar markazlarining xodimlari faoliyat ko'rsatadi.

Ijtimoiy moslashuv oromgohlarining faoliyati "Mehribonlik" uylarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va tarbiyaviy dasturlarning davom ettirgan holda ijtimoiy moslashuv dasturlari bilan uyg'unlikda olib boriladi.

3. Barcha turdagi ixtisoslashgan oromgohdarning faoliyati yo'nalishlari bo'yicha tashkil etiladigan tadbirlar bilan Respublika oromgohlarida bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish koshdepstiyasida belgilangan tarbiyaviy ishlar uyg'unlikda tashkil etiladi.

Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirishni amalga oshirish bo'yicha mutasaddi tashkilotchilarning taklif va tashabbuslari bilan boshqa yo'nalishlarda ham oromgohlar faoliyati yo'lga qo'yilishi mumkin.

4. Oromgohlarda bolalarga ko'rsatiladigan ("Jamoat tartibini saqlash va

xavfsizlikni ta'minlash, aloqa va transport", "Oromgohlarni tibbiy yordam bilan ta'minlash, Davlat sanitariya nazoratini o'rnatish, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda sifatini nazorat qilib borish", "Ta'lim-tarbiyaviy", "Ma'naviy-ma'rifiy va madaniy", "Sayyohlik va ekskursiya", "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi") xizmatlar Respublika oromgohlarida bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish konstepstiyasi asosida tashkil etiladi.

5. Oromgohda bolalarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda guruhlar tuziladi. Guruhlardagi bolalar soni 7-9 yoshdagi o'quvchilar uchun 30 nafardan, 10-18 yoshdagi o'quvchilar uchun 40 nafardan oshmasligi kerak.

6. Bolalarni oromgohda sog'lomlashtirish muddatlari O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi Rayosati tomonidan moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda hududiy sog'liqni saqlash organlarining tavsiyalari va tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olib belgilanadi. Bunda yozgi mavsum davrida 10 kundan, kuzgi va qishki mavsum davrida 7 kundan kam bo'lmagan muddatni tashkil etadi.

7. Bolalar oromgohdarga yo'llanma asosida yuboriladilar. Bunda oromgohga yo'llanma bolalarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'langan mablag'lar asosida beriladi.

8. Bolalarni oromgohga qabul qilish tegishli tuman (shahar) hokimliklari huzurida tashkil etiladigan maxsus komissiya tomonidan ushbu oromgoh faoliyat yuritishga tayyorligi haqidagi tegishli dalolatnoma rasmiylashtirilganidan hamda shtatlar jadvaliga muvofiq xodimlar bilan to'la ta'minlanganidan so'ng amalga oshiriladi.

#### **IV. Oromgohni boshqarish**

1. Oromgoh faoliyatiga rahbarlik qilish balansda saqlovchining buyrug'i bilan tasdiqlanadigan boshliq tomonidan amalga oshiriladi. Oromgoh boshlig'iga nomzod balansda saqlovchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan birgalikda belgilanadi.

2. Oromgoh xodimlarining shtatlar jadvali balansda saqlovchi va kasaba

uyushmasi qo'mitasi bilan birgalikda oromgohdagi bolalarning sig'imi quvvatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi va balansda saqlovchi tomonidan tasdiqlanadi.

3. Oromgoh faoliyatiga jalb etiladigan xodimlar oromgoh boshlig'ining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Bunda oromgohning tibbiyot xodimlari (bolalar shifokori va tibbiy hamshira (feldsher) tegishli sog'liqni saqlash boshqarmalari bilan kelishgan holda ishga qabul qilinadi. Tibbiyot xodimlari oromgoh rahbariyati bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, belgilangai tartibda mavsum davomida davolash-profilaktika ishlarini olib borishi, sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga rioya qilinishi, ovqatlanishini tashkil etish uchun mas'uldirlar.

4. Stasionar turdagi oromgoh xodimlari uchun yashash va ovqatlanish bepul amalga oshiriladi va buning uchun sarflanadigan xarajatlar balansda saqlovchi hisobidan qoplanadi.

## **V. Oromgohni moliyalashtirish va hisobot berish**

1. Stasionar turdagi oromgohni ta'minlash (binolar va inshootlarini ta'mirlash, isitish, yoritish, tozalash, qo'riqlash, suv ta'minoti, kanalizastiya, jihozlash, telefon aloqasi, madaniy va sport asbob-uskunalarini bilan ta'minlash, tibbiyot punktini talablarga muvofiq jihozlash va uni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxat asosida dori-darmon va tibbiy vositalar bilan ta'minlash, bank xizmatlari, yoqilg'i va oziq-ovqat mahsulotlarini keltirish, shuningdek farroshlar, kir yuvuvchi, bog'bon, haydovchi, qorovullar hamda oromgoh binolari va inshootlariga texnik xizmat ko'rsatuvchi boshqa xodimlarning ish haqi hamda profilaktik dezinfekstiya uchun xarajatlar) balansda saqlovchi hisobidan amalga oshiriladi.

Agar oromgoh bir nechta balansda saqlovchilarning hamkorligida tashkil etilgan bo'lsa, ushbu bandning birinchi xatboshisida ko'rsatilgan xarajatlar oromgohni tashkil etishda ishtirok etgan tashkilotlar tomonidan oromgohga

sog'lomlashtirish uchun jo'natilgan bolalarning soniga mutanosib ravishda qoplanadi.

2. Kunduzgi oromgohlarni ta'minlash, bolalarni sog'lomlashtirish, tarbiyaviy ishlarni o'tkazish, xodimlarning ish haqi, ovqatlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy baza bilan ta'minlash balansda saqlovchi va tegishli xalq ta'limi organlari tomonidan kasaba uyushmasi organi bilan kelishgan holda bolani oromgohda ta'minlash bo'yicha xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Bolalarni oromgohda saqlash xarajatlari balansida saqlovchi, ijtimoiy sug'urta mablag'lari, kasaba uyushmasi byudjeti mablag'lari, ota-onalar yo'llanma uchun to'lagan badallari, shuningdek qonun hujjatlari bilan ta'kiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. Balansda saqlovchi bolalarni oromgohda tasdiqlangan normativlardan ziyod ta'minlanishini tashkillashtirishi mumkin. Bunda bolalar oromgohlarda tasdiqlangan normativlardan ziyod bo'lishi va ta'minlanishi bilan bog'liq xarajatlar, shu jumladan, bolalarning ovqatlanishi, davolanishi, oromgoh xodimlarining ish haqi uchun qo'shimcha mablag' ajratishi va boshqa harajatlar balansda saqlovchi tomonidan qoplanadi.

5. Oromgohning buxgalteriya hisobi va hisoboti qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Balansda saqlovchilar va kasaba uyushmalari qo'mitalari muntazam ravishda, lekin mavsum davomida esa kamida bir marta oromgohning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ahvolini tekshiradilar.

7. Oromgohda mavsum tugashi bilan balansda saqlovchilar va kasaba uyushmalari qo'mitalari tomonidan uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati taftish qilinadi va mulki xatlov o'tkaziladi. Taftish va xatlov natijalari bo'yicha tuzilgan dalolatnomalar, bayonnomalar, qaydnomalar, moliyaviy hisobotlar, shuningdek oromgohning faoliyati haqidagi hisobotlar kasaba uyushmasi qo'mitasida saqlanadi.

Bunda kasaba uyushma qo'mitasi oromgohning faoliyati haqidagi



hisobotni ma'lumot uchun balansda saqlovchiga, moliyaviy hisobotni esa umumlashtirish uchun yuqori turuvchi kasaba uyushmasi organiga yuboradi.



### **2.3. Yozgi ta'tilda sport musobaqalarini o'tkazish.**

Yozgi mavsumda dam olish oromgohlariga jalb etilmagan o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, respublikamizning eng chekka hududlarida barpo etilgan bolalar sport majmualari quvvatidan to'liq va samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, jismoniy tarbiya va sportni keng miqyosida rivojlantirish, qishloq yoshlarini ommaviy sportga jalb etishda mutasaddi vazirlik va idoralar hamkorligi natijasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligini yanada mustahkamlash, qizlarni sport mashg'ulotlariga jalb etishga alohida e'tibor qaratish, o'sib kelayotgan yosh avlod ongida jismoniy tarbiya va sport orqali jismonan baquvvat, mustahkam irodali, har tomonlama sog'lom avlodni voyaga etkazish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular ongida sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi mamlakatimiz o'quvchilarining asosiy qismini qamrab oladigan "Yozgi ta'til sport musobaqalari" tadbirini o'tkazib kelmoqda.

Mazkur sport musobaqalari O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Jismoniy tarbiya va sport ishlari vazirligi, "Mahalla" xayriya jamg'armasi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, "Yoshlik", "Barkamol-avlod", "Talaba" jismoniy tarbiya va sport jamiyati, "Yoshlar itifoqi" ijtimoiy harakati, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda boshqa tashkilotlar hamkorligida o'tkaziladi.

Musobaqalarning barcha bosqichlarini o'tkazish jarayonida badiiy havaskorlik jamoalari, san'atkorlar ishtirokida madaniy dasturlar uyushtiriladi, shuningdek, taniqli sport yulduzlari va sport faxriylarining ishtiroki ta'minlanadi.

Barcha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya o'qituvchi-murabbiylarining mehnat ta'tiliga navbat bilan chiqishlari belgilab qo'yiladi.

Joriy yildan boshlab o'tgan yillardagiga nisbatan o'quvchi-yoshlarni ko'proq qismini musobaqalarga qamrab olish maqsadida 15 iyundan boshlab start oladigan joriy yilgi musobaqalarda o'quvchi-yoshlar joylardagi sharoitdan

kelib chiqqan holda, sportning 15 turi bo'yicha qatnashadilar. Bular futbol, basketbol, voleybol, stol tennisi, qo'l to'pi, engil atletika, suzish, shaxmat-shashka, kurash, belbog'li kurash, sport va badiiy gimnastika, badminton, armrestliig sport turlaridir.

Musobaqalar yakshanba kunidan tashqari har kuni kunning birinchi yarmida bo'lib o'tadi. Yozda havo haroratini isib ketishini inobatga olib hamda o'quvchilarni tushlik qilishi uchun qo'shimcha xarajatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida sport musobaqalari har kuni soat 12<sup>00</sup> gacha o'tkazilib, undan keyin o'quvchilarga uylariga ruxsat beriladi. Sport musobaqalari shu tariqa avgust oyining 15 sanasiga qadar davom etadi.

Joriy yilda bo'lib o'tadigan sport musobaqalari "Yozgi ta'til sport musobaqalari-2018" deb nomlanadi. Ushbu tadbir oldingi yillardagilariga nisbatan takomillashtiriladi. Ya'ni sport musobaqalari faqat umumta'lim maktablarida va barcha oromgohlarda bo'lib o'tadi. Foydalanishga topshirilgan sport inshootlari maktablarga yaqin bo'lsa, ayrim sport turlaridan musobaqalarni shu sport inshootiga ko'chirish tavsiya etiladi. Agar sport zali yo'q maktab yaqinroq bo'lsa, ushbu sport inshootidan shu maktab to'liq foydalanadi. Bunda sport inshootida doimiy sport bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarga halaqit qilinmasligi kerak. Sport zali mavjud bo'lmagan maktablarda mavjud sport maydonchalarining imkoniyatidan kelib chiqib musobaqalar tashkillashtiriladi.

Umumta'lim maktablarida yil yakuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi, 1 iyundan 20 iyungacha qadar imtihonlar bo'lib o'tadi. Shularni etiborga olib, "Yozgi ta'til sport musobaqalari"ni 20 iyunda boshlash maqsadga muvofiqdir. 15 iyungacha qadar jamoalar shakllantiriladi, ya'ni barcha otryadlarda sport turlari bo'yicha ishtirokchilar ro'yxati tuziladi. Ular to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. O'yinlar jadvali ishlab chiqilib, boshqa tashkiliy chora-dadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

Sport musobaqalarini har bir otryadda sharoitdan kelib chiqib o'tkazish tavsiya etiladi. Masalan, ba'zi otryadlarda barcha sport turlaridan musobaqalar o'tkazishi maqsadga muvofiq kelmaydi. Ularni yoshiga qarab, shuningdek

o'ynay oladigan sport turlariga jalb etish kerak. otryadlarda futbol, basketbol, engil atletika, shaxmat-shashka, armrestling, sport va badiiy gimnastika, stol tennisi, kurash va belbog'li kurash, suzish havzasi bor muassasalarda suzish musobaqalarini tashkil etish mumkin.

Yuqori yoshdagi otryadlarda sportning futbol, voleybol, basketbol, gandbol, shaxmat-shashka, engil atletika, stol tennisi, badminton, armrestling, sport va badiiy gimnastika, kurash, belbog'li kurash, suzish havzasi bor muassasalarda suzish musobaqalarini tashkil etish mumkin.

Har bir otryadning sport turlari bo'yicha jamoalarini shakllantirishda o'quvchilarni sport turiga qiziqishiga va qobiliyatiga qarab ro'yxati tuziladi.

Bir sport turidan ishtirok etgan o'quvchi boshqa sport turidan ham ishtirok etishi mumkin. Masalan, futbol musobaqalari tugagandan so'ng futbol o'ynagan bolalar ta'tilning qolgan kunlarida bo'sh bo'lib qolmasligi uchun sportning yana boshqa turidan musobaqalarda qatnashish huquqiga ega.

Har bir otryadda 30-35 nafar o'quvchi bo'lishini inobatga olib jamoalar tarkibini qisqartirilgan tartibda shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4-5 otryadda futbol bo'yicha musobaqalarga faqat o'g'il bolalardan 5-6 nafar, stol tennisiga, shaxmat-shashkaga, engil atletika, badminton va suzish havzasi bor muassasalarda suzish musobaqalariga o'quvchilarni qiziqishiga qarab hamda sport inshootining quvvati va oromgohdagi o'quvchilar sonidan kelib chiqib har bir sport turiga 10 nafar o'g'il bola, 10 nafar qiz bolalardan iborat jamoa tarkibi shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kurash va belbog'li kurash musobaqalariga 10-12 yoshli bolalar 23 kg, 26 kg, 29 kg,  $\pm$  29 kg. 5-otryadda 26 kg, 29 kg, 32 kg,  $\pm$  32 kg. vazn toifalari belgilanib har bir vazn toifasiga bir nafardan bola tanlanadi.

12-13,14-15, yoshli bolalarda futbol bo'yicha musobaqalarga o'g'il bolalardan 5-6 nafar, voleyboldan 6 nafar o'g'il, 6 nafar qiz, basketboldan 5 nafar o'g'il, 5 nafar qiz, gandboldan 7 nafar o'g'il, 7 nafar qiz va ushbu sport turlaridan 2 nafardan zahira o'yinchilar belgilanadi. Stol tennisi, shaxmat-shashka, engil atletika, badminton, armrestling va suzish havzasi bor

muassasalarda suzish musobaqalariga o'quvchilarni qiziqishiga qarab hamda sport inshootining quvvati hamda oromgohdagi o'quvchilar sonidan kelib chiqib har bir sport turiga 10 nafar o'g'il bola, 10 nafar qiz bolalardan iborat jamoa tarkibi shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kurash va belbog'li kurash musobaqalariga 12-13 yoshli bolalar: 29kg, 32 kg, 35 kg,  $\pm$  35 kg. 7-otryadda: 42 kg, 47 kg, 53 kg,  $\pm$  53 kg. 8-otryadda: 42 kg, 47 kg, 53 kg, 59 kg, 66 kg. 9-11 otryadda: 42 kg, 47 kg, 53 kg, 59 kg, 6 kg,  $\pm$ 73 kg vazn toifalari belgilanib har bir vazn toifasiga bir nafardan bola olinadi.

Har bir sport turidan ishtirokchilar soni barcha otryadlarda bir xil bo'lishi kerak. Yuqori sinf o'quvchilari bitiruvchi otryad bo'lganligi uchun musobaqalarda ishtirok etishadi.

Musobaqalarning tuman, shahar birinchiliklari hududiy qilib o'tkazilishi tavsiya etiladi. Ya'ni bunda bir-biriga yaqin oromgohlar o'rtasida musobaqalar tashkillashtirilib, o'quvchilarni musobaqa joyiga borib-kelishi uzoq bo'lmagan va xarajat talab etmaydigan bo'lishi kerak. Musobaqalarning tuman, shahar tashkiliy qo'mitasi qarori bilan hududiy bosqich g'oliblari imkoniyat darajasida jamg'arma tomonidan foydalanishga topshirilgan sport majmualarida tuman, shahar bosqichi yoki shu sport majmuasi atrofidagi oromgohlar o'rtasidagi birinchilik ham 15-20 avgust kunlari tashkil etilishi mumkin,

Bu tartib oromgoh jamoalarini tuman, viloyat markaziga yoki musobaqalar bo'lib o'tadigan hududga borish-kelish xarajatlarini topishda muammolari mavjud bo'lmagan hollarda amalga oshiriladi, shuningdek, maktab jamoalari tuman, viloyat birinchiligi tashkil etiladigan manzilga borish-kelish, ovqatlanish xarajatlari uchun mablag'ni hal etish imkoniyati bo'lsa, tuman, shahar va viloyat birinchiliklarini ham tegishliligicha tashkiliy qo'mitalar qarori bilan 15-25 avgust kunlari tashkil etish mumkin.

Tuman birinchiligini o'tkazish uchun hududiy musobaqalar g'oliblarining 30% ishtirok etish imkoniyati bo'lganda, shaharlarda 50% hududiy g'oliblar ishtirok etganda, viloyat birinchiligida tuman va shaharlarning 50% ishtirok etish imkoniyati mavjud bo'lganda tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2018 yilgi bolalarni yozgi sog'lomlashtirish va dam oldirish mavsumini uyushqoqlik bilan samarali o'tkazish uchun Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi 9628 ta maktab, 85 ta maxsus maktablarning barchasida musobaqalar o'tkaziladi.

Futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi, stol tennisi, shaxmat-shashka, engil atletika, belbog'li kurash, kurash, sport va badiiy gimnastika, badminton, armrestling bo'yicha musobaqalar sport maydonchalari mavjud oromgohlarda o'tkaziladi.

Sport maydonchalari mavjud bo'lgan oromgohlarda futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi, stol tennisi, badminton, engil atletika musobaqalari sport maydonchalarida o'tkazilsa, shaxmat-shashka, darts, armrestling sport turlaridan musobaqalar oromgoh xonalarida o'tkaziladi.

Musobaqalarni tashkillashtirishda oromgoh rahbariyati, ayniqsa, otryad rahbarlari va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozim.

O'qituvchilarini asosan yozgi ta'til vaqtida mehnat ta'tiliga chiqishi inobatga olinib, ushbu tartibni buzmaganda o'qituvchilar mehnat ta'tiliga navbat bilan chiqariladi. Masalan 3-6 nafar jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi faoliyat yuritishsa ularni navbat bilan mehnat ta'tiliga chiqarilsa yozgi ta'til davridagi sport musobaqalariga 2-4 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchisi asosiy mas'ul qilib belgilanadi. oromgoh bo'yicha umumiy tadbirga bir nafar jismoniy tarbiya o'qituvchisi tashkilotchilik qilsa, har bir sport turi bo'yicha o'tkaziladigan sport musobaqalariga nazoratchi yoki mas'ul etib, shu sport turiga qiziqadigan boshqa fan o'qituvchilaridan qolaversa, yuqori otryad o'quvchilari orasidan sportchi, tashkilotchi, namunali o'quvchilar tanlab olinadi. Shuningdek Bolalar va o'smirlar sport maktabining murabbiylari, "Mahalla" jamg'armasi, "Yoshlar itifoqi" harakatining sport uslubchilari jalb etiladi.

Sport musobaqalarida har bir maktabdagi jami jismoniy tarbiya o'qituvchilarining 3/2 qismi ishtirok etadi. Qolganlari navbat bilan mehnat ta'tiliga chiqadi. Shunda xalq ta'limi tizimidagi jami 27,452 nafar jismoniy

tarbiya fani o'qituvchilaridan 18,301 nafari ishtirok etadi. Sport maktablari murabbiylarining ham 3/2 qismi mashg'ulot o'taydigan oromgohlardagi musobaqalarda ishtirok etadi. Qolganlari navbati bilan mehnat ta'tiliga chiqariladi. Shunda xalq ta'limi tizimdag jami 9,078 nafar murabbiydan 6,052 nafari ushbu tadbirlarda ishtirok etadi.

Oromgohlarda musobaqalarni o'tkazish tizimini tuman (shahar) tashkiliy qo'mitasi va maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari har bir sport turidagi ishtirokchilar sonidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Tuman (shahar)larda tashkil etiladigan tashkiliy qo'mita tarkibiga sport yo'nalishi no'yicha hokim o'rinbosari boshchiligida xalq ta'limi muassalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi, sport ishlari, "Yoshlar ittifoqi" "Mahalla" xayriya jamg'armasi bo'limlari boshliqlari, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining vakili, "Yoshlik", "barkamol avlod", "talaba" jamiyatining tuman (shahar) kengashi rais o'rinbosari kiritiladi.

Musobaqalarni o'tkazishga va jamoalarni tayyorlashga mahalla fuqarolar yig'inlari, ta'lim muassasalari direktorlari, direktor o'rinbosari, otryad rahbari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari shaxsan ma'sul hisoblanadi.

Har bir ta'lim muassasa tomonidan musobaqalarning o'tkazilishi bo'yicha jadval ishlab chiqilib, oromgoh rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

### **Yozgi dam oluvchi o'quvchilar o'rtasida bo'lib o'tadigan "yozgi ta'til sport musobaqalarini o'tkazish tartibi.**

Agar oromgohda sport zal, futbol, basketbol, voleybol maydoni engil atletika sektori bo'lsa bir kunda 4-8-otryadning hammasiga sportning barcha turlaridan musobaqalar tashkil etish mumkin.

Masalan:

20 iyun kuni soat 8<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha 4 "a" va 4 "g" otryad o'quvchilari oromgohning futbol maydonida futbol musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 8<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha 5 "a" va 5 "g" otryad o'quvchilari oromgohning basketbol maydonida basketbol musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 8<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha 6 "a" va 6 "g" otryad o'quvchilari

oromgohning voleybol maydonida voleybol musobaqalarida kuch sinashadi.

20 shon kuni soat 8<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha 7 “a” va 7 “g” otryad o’quvchilari oromgohning engil atletika maydonida uzunlikka sakrash musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 8<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha 8 “a” va 8 “g” otryad o’quvchilari oromgohning engil atletika maydonida yugurish musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 8<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha 4 “b” va 4 “v” otryad o’quvchilari oromgohning sport xonasida gimnastikasi musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 8<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha 5 “b” va 5 “v” otryad o’quvchilari oromgohning majlislar zali yoki kattaroq oromgoh xonasida shaxmat-shashka musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 8<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha 6 “b” va 6 “v” otryad o’quvchilari oromgohning foesida yoki oromgoh hovlisida stol tennisi musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 8<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha 7 “b” va 7 “v” otryad o’quvchilari oromgohning bo’sh turgan oromgoh xonasida yoki maktab hovlisida armrestling musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 8<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha 8 “b” va 8 “v” otryad o’quvchilari oromgoh hovlisida badminton musobaqalarida kuch sinashadi.

Birinchi davra musobaqalari 8<sup>00</sup> da boshlanib 9<sup>00</sup> da tugaydi. Agar musobaqalar 30-40 daqiqada tugasa 9<sup>00</sup> da boshlanadigan keyingi davra musobaqalariga jamoalar, hakamlar, nazoratchilarni dam olishi va boshqa tashkiliy-texnik ishlar bilan shug’ullanishi uchun vaqt qoldirishadi. Shundan keyin 9<sup>00</sup> dan 10<sup>00</sup> gacha keyingi davra musobaqalari qizlar o’rtasida o’tkaziladi. Huddi shu tartibda 3-davra musobaqalari 10<sup>00</sup> dan 11<sup>00</sup> gacha o’g’il bolalar o’rtasida bo’lib o’tadi. 4-davra musobaqalari 11<sup>00</sup> dan 12<sup>00</sup> gacha qiz bolalar o’rtasida bo’lib o’tadi.

Agarda otryad o’quvchilarining ko’pchilik qismi musobaqalarda ishtirok etishni istamagan holatlar bo’lsa, bir o’quvchini bir nechta sgort turidan ishtirok etishi mumkinligini inobatga olib, bunda oldingi soatda jismoniy katta kuch



talab qilinmagan sport turlari bilan musobaqalashgan jamoalarni jismoniy katta kuch talab qilinadigan sport turlariga almashtirishga alohida e'tibor qaratmoq lozim.

Ya'ni, shaxmat-shashka musobaqalarida ishtirok etgan 5 "b" va 5 "v" otryad uquvchilari futbol musobaqalarini davom ettirishadi. Badminton musobaqalarida kuch sinashgan 8 "b" va 8 "v" otryad o'quvchilari voleybol musobaqalarini davom ettirishadi.

Agar otryad o'quvchilarining katta qismi sport musobaqalarda ishtirok etayotgan ya'ni barcha sport turlaridan jamoalar to'liq shakllangan bo'lsa keyingi davra sport musobaqalari birinchi davra musobaqalari o'tkazilgan tartibda davom ettiriladi.

20 iyun kuni soat 10<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> gacha 4 "b" va 4 "v" otryad o'quvchilari oromgohning futbol maydonida futbol musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 10<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> gacha 5 "b" va 5 "v" otryad o'quvchilari oromgohning basketbol maydonida basketbol musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 10<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> gacha 6 "b" va 6 "v" otryad o'quvchilari oromgohning voleybol maydonida voleybol musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 10<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> gacha 8 "b" va 8 "v" otryad o'quvchilari oromgohning engil atletika maydonida uzunlikka sakrash musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 10<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> gacha 7 "a" va 7 "g" otryad o'quvchilari oromgohning engil atletika maydonida yugurish musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 10<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> gacha 4 "a" va 4 "g" otryad o'quvchilari oromgohning sport xonasida gimnastikasi musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 10<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> gacha 5 "a" va 5 "g" otryad o'quvchilari oromgohning majlislar zali yoki kattaroq oromgoh xonasida shaxmat-shashka musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 10<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> gacha 6 "a" va 6 "g" otryad o'quvchilari oromgohning foesida yoki maktab hovlisida stol tennisi musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 10<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> gacha 7 “a” va 7 “g” otryad o’quvchilari oromgohning bo’sh turgan otryad xonasida yoki oromgoh hovlisida armrestling musobaqalarida kuch sinashadi.

20 iyun kuni soat 10<sup>30</sup> dan 11<sup>30</sup> gacha 8 “a” va 8 “g” otryad o’quvchilari romgoh hovlisida badminton musobaqalarida kuch sinashadi.

Sport musobaqalarini huddi shu tartibda o’tkazish bo’yicha jadval ishlab chiqilib, jadvalga qat’iy rioya qilib borilsa musobaqalar tartibli o’tadi va saviyasi oshib, o’quvchilarning ishtirok etishi oshib boradi.

**Sport musobaqalarini o’tkazish bo’yicha jadval namunasi:**

№	Otryadlar	Sport turlari	Musobaqa joyi	Musobaqa vaqti
1	4 “a”-4”g”	Futbol	Stadion	20.06.2018yil soat 8-00
2	4 “b”- 4 ”a”	Sport gimnastikasi	Sport zali	20.06.2018yil soat 10-00
3	5 “a”- 5 “g”	Voleybol	Voleybol maydoni	20.06.2018yil soat 9-00

Futbol, voleybol, sport gimnastikasi musobaqalari barcha otryadda tugagandan keyin alohida jadval asosida qo’l to’pi musobaqalarini futbol maydonida va badiiy gimnastika, kurash, belbog’li kurash musobaqalarini sport zalda o’tkazilishi maqsadga muvofiq bo’ladi.

Huddi shuningdek suzish havzasi bor oromgohlarda suzish musobaqalari ham kunlik musobaqalar jadvaligi kiritilib otryad bo’yicha navbati bilan musobaqalar o’tkaziladi.

Voleybol musobaqalari Voleybol maydonida o’tkaziladi.



### Voleybol sport turidan o'yinlar jadvali

№	Otryadlar	1	2	3	4	Partiyalar nisbati	Ochko	O'rin
1	4 "A" otryad		$\frac{2:0}{3}$	$\frac{2:1}{3}$	$\frac{1:1}{1}$	5-2	7	1
2	4 "B" otryad	$\frac{0:2}{0}$		$\frac{2:1}{3}$	$\frac{3:0}{3}$	5-2	6	2
3	4 "V" otryad	$\frac{1:2}{0}$	$\frac{1:2}{0}$		$\frac{3:1}{3}$	5-5	3	3
4	4 "G" otryad	$\frac{1:1}{1}$	$\frac{0:3}{0}$	$\frac{1:3}{0}$		2-7	1	4

#### 1- tur 20.06.2018yil

4" a" – 4" g" soat 9-00.

4" b" – 4 " v" soat 10-15.

#### 2- tur 21.06.2018yil

4 "v" – 4" a" soat 9-00

4 "b" – 4" g" soat 10-15.

#### 3 – tur 22.06.2018yil

4 "a" – 4" b" soat 9-00da.

4 "v" – 4" g" soat 10-15.

**Engil atletika musobaqalari 20.06 -21.06.2018yil kunlari soat 9-30da**

**maxsus ajratilgan yugurish yo'lakchalarida o'tkaziladi.**

-30 metrga yugurish musobaqalarida har bir otryaddan 10 nafar o'g'il va 10 nafar qiz bolalar qatnashadi.

-har bir otryaddan startda 1 nafardan qiz bola yuguradi.

- g'olib otryadni aniqlashda umumiy (10 nafar qiz bola) ochkolar yig'indisi bo'yicha aniqlanadi.

oromgohda otryad soniga qarab o'quvchilar startga qo'yiladi. Agar 3 ta otryad bo'lsa 3 ta o'quvchi startga, 4 ta otryad bo'lsa 4 ta o'quvchi startda ishtirok etadi.

**JADVAL**

**30 metrga yugurish**

№	Otryadlar	1start	2start	3start	4start	5start	6start	7start	8start	9start	10start	Ochko
1	4 "A" otryad	2	3	5	3	5	1	5	2	5	3	34
2	4 "B" otryad	5	1	1	2	3	3	3	3	2	2	25
3	4 "V" otryad	3	2	2	5	2	2	2	1	3	1	22
4	4 "G" otryad	1	5	3	1	1	5	1	5	1	5	29

Yugurish musobaqasida har bir start uchun ochkolar berilish tartibi.

1- o'rin 5 ochko

2 - o'rin 3 ochko

3- o'rin 2ochko

4- o'rin 1 ochko

**Engil atletika musobaqalari 22.06 -23.06.2018yil kunlari soat 9-30da**

**maxsus ajratilgan yugurish yo'lakchalarida o'tkaziladi.**

-60 metrga yugurish musobaqalarida xar bir otryaddan 10 nafar o'g'il va 10 nafar qiz bolalar qatnashadi.

-har bir otryaddan startda 1 nafardan o'g'il bola va qiz bola (oldin qiz bolalar keyin o'g'il bolalar ketma-ketligi) yuguradi.

g'olib otryadni aniqlashda umumiy (10 nafar o'g'il va 10 nafar qiz bolalar) ochkolar yig'indisi bo'yicha aniqlanadi.

Oromgohda otryadlar soniga qarab o'quvchilar start ga qo'yiladi. Agar 3 ta otryad bo'lsa 3 ta o'quvchi startga, 4 ta otryad bo'lsa 4 ta o'quvchi startda ishtirok etadi.

**JADVAL**

**60 metrga yugurish**

№	Otryadlar	1start	2start	3start	4start	5start	6start	7start	8start	9start	10start	Ochko
1	4 "A" otryad	3	3	5	3	5	1	5	3	5	3	36
2	4 "B" otryad	5	1	2	2	2	3	3	2	2	2	24
3	4 "V" otryad	1	2	1	5	1	2	1	5	3	1	24
4	4 "G" otryad	2	5	3	1	3	5	2	1	1	5	26

Yugurish musobaqasida har bir start uchun ochkolar berilish tartibi.

1- o'rin 5 ochko

2 - o'rin 3 ochko

3- o'rin 2ochko

4- o'rin 1 ochko

Voleybol musobaqalari 28-29-30-.06.2018 yil kunlari voleybol maydonida o'tkaziladi.

**voleybol sport turidan jadval.**

**JADVAL**

№	Otryadlar	1	2	3	4	partlyalar nisbati	Ochko	O'rin
1	5 "A" otryad		$\frac{2:0}{3}$	$\frac{2:1}{2}$	$\frac{2:0}{3}$	6-1	8	1
2	5 "B" otryad	$\frac{0:2}{0}$		$\frac{2:0}{3}$	$\frac{1:2}{1}$	3-4	4	3
3	5 "V" otryad	$\frac{1:2}{1}$	$\frac{0:2}{0}$		$\frac{1:2}{1}$	2-6	2	4
4	5 "G" otryad	$\frac{0:2}{0}$	$\frac{2:1}{2}$	$\frac{2:1}{2}$		4-4	4	2

voleybol musobaqalarida o'yin qisqartirilgan 15 hisobda dan 3 ta bo'lim.  
 O'yinda 2:0 g'olib chiqqan otryadga 3 ochko beriladi. O'yinda durang bo'lsa 2:1 hisobda g'olib jamoaga 2 ochko mag'lub jamoaga 1 ochko beriladi.  
 Agar ochkolar nisbati teng bo'lsa, partiyalar nisbatiga qaratiladi.

## **Orongohlarda voleybol sport turi bo'yicha musobaqa o'tkazish hujjatlari.**

### **Talabnoma**

Musobaqaga qatnashish: O'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida oromgoh otryadlari orasida birinchilik

Sport turi: Voleybol

<b>№</b>	<b>F.I.O</b>	<b>Tug'ilgan yili</b>	<b>Mil lat</b>	<b>Alpomish va Bachinoy</b>	<b>O'qish joyi</b>	<b>Hakim ruxsati</b>
1.	Alyamov.Botirxo'ja	2005	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
2.	Baxromov Dilshod	2005	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
3.	Barotov Barot	2005	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
4.	Hojiev Mironshoh	2006	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
5.	Hilimov Javohir	2006	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
6.	Ibragimov Xolro'zi	2005	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
7.	Idiboev Bekzod	2006	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
8.	Jo'raev Diyor	2005	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
9.	Muzaffarov Temir	2005	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
10.	Mirpo'latov Jag'ongir	2005	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
11.	Muxsinov Amirbek	2005	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom
12.	Norqulov Ozodbek	2005	O'zbek	topshirgan	12-maktab	Sog'lom

**Jamoa rahbari: A.S.Ikromov**

**Muabbiy: Abdullaeva.N**

## BAYONNOMA

Voleybol bo'yicha musobaqa: Oromgoh otryadlar bo'yicha birinchilik

Jamoalar 5 "A" va 5 "B" maydon: Yosh kuch

"28"iyun 2018 yildan

tarkib: 5 "A" \_\_\_\_\_

tarkib: 5 "B" \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Jamoa sardori: Abdullaev.

Jamoa sardori Ikromov

1-bo'lim		2-bo'lim		3-bo'lim	
1	1	1	1	1	1
2	2	2	2	2	2
3	3	3	3	3	3
4	4	4	4	4	4
5	5	5	5	5	5
6	6	6	6	6	6
7	7	7	7	7	7
8	8	8	8	8	8
9	9	9	9	9	9
10	10	10	10	10	10
11	11	11	11	11	11
12	12	12	12	12	12
13	13	13	13	13	13
14	14	14	14	14	14
15	15	15	15	15	15
16	16	16	16	16	16
17	17	17	17	17	17
18	18	18	18	18	18
19	19	19	19	19	19
20	20	20	20	20	20
21	21	21	21	21	21
22	22	22	22	22	22
23	23	23	23	23	23
24	24	24	24	24	24
25	25	25	25	25	25

Natija:

1- bo'lim: 25-15

2- bo'lim: 17-25

3- bo'lim: -

g'olib: 5 "A"

g'olib: 5 "A"

g'olib \_\_\_\_\_

Umumiy hisob: 2-0

Hakam: Usmonov.

g'olib: 5 "A"

Kotib: Abdullaeva.



Sportning futbol turidan o'yinlar maktab sport maydonida 27-28-29 iyun kunlari soat 9-00 dan boshlanadi.

Musobaqada har bir otryaddan 11 nafar o'g'il bolalar ishtirok etadilar. Ular guruhlariga bo'lingan holda o'zaro kurashadilar. Guruhlardan 1 o'rini egalagan o'quvchi 1-4 o'rinlar uchun aylanma tizimi bo'yicha kurashani davom ettiradilar.

### Futbol bo'yicha musobaqa jadvali

№	Otryadlar	1	2	3	4	To'plar nisbati	Ochko	O'rin
1	5 "A" otryad		$\frac{1:1}{1}$	$\frac{3:0}{3}$	$\frac{1:0}{3}$	5-1	7	1
2	5 "B" otryad	$\frac{1:1}{1}$		$\frac{2:1}{3}$	$\frac{1:1}{1}$	4-3	5	2
3	5 "V" otryad	$\frac{0:3}{0}$	$\frac{1:2}{0}$		$\frac{2:0}{3}$	3-2	3	3
4	5 "G" otryad	$\frac{0:1}{0}$	$\frac{1:1}{1}$	$\frac{0:2}{0}$		1-4	1	4



## II Bob xulosasi.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab yoshlarni har tomonlama barkamol avlod etib tarbiyalash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilab olingan. Amalga oshirilgan sa'y-harakatlar o'zining samarasini bermoqda. Yoshlarning bilim darajasi oshmoqda, ularning jismoniy holati yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish sohasida erishilgan yutuqlar ham bu borada hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar natijasidir.

Yozgi dam olish oromshog'larida sport musobaqalarini o'tkazish, zamonaviy sport zallari va jihozlangan sport maydonchalarida o'tkazish tavsiya etiladi. Sport anjomlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yozgi dam olish oromgohlarida barcha o'quvchi yoshlarni jalb qilish ularning salomatligini tiklash maqsadga muvofiqdir.



## XULOSA.

Yozgi dam olish ormgohi - ta'lim - tarbiya jarayoning asosiy maydoni bo'lib, u erda o'qituvchi bolalarga ta'lim beradi, ularning tarbiyalaydi va har tamonlama rivojlantiradi. Yozgi oromgohlarda o'quvchilarning bilimiga qiziqishi va ijodiy kuchi rivojlanadi, ilmiy fikrlash malakasi shakllanadi. Musobaqalar sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning jismonan sog'lom, baquvvat bo'lib o'sadilar.

Jismoniy (tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, eshluvchanlik, kuch) fazilatlarini rivojlanib boradi. Sportga bo'lgan qiziqish ortib boradi.

Yozgi dam olish oromgohlarda ijtimoiy hayotni aktivlashtirishning muhim vositasi. Bu musobaqalarini pedagogik jihatdan mohirona boshqarib borilgan oromgoh, o'quvchilar jamoalarining muhim ishlarini hal etishga qodir. Oromgohlarda turizm, sport musobaqalari va ijtimoiy - foydali mehnat birinchi o'rinda turadi, hammasining vazifasi bir, o'quvchilarning salomatligini mustahkamlash, ularning ijtimoiy kamolotini ta'minlash, mehnat ko'nikmalari va ma'naviy xislatlarni tarbiyalashga ko'maklashishdan iborat.

Yozgi dam olish ormgohlarning kun tartibi qo'ydagilarga bo'linadi.

Ertalab o'rindan turish-----soat 7-00 .

Badan tarbiya mashqlari ----- soat 7.05-7.20

Yuz qo'l yuvish----- soat 7.20 -7.50

Ertalabki yig'in----- soat 7.50-8.00

Nonushta----- soat 8.00- 8.30

Oromgohda ijtimoiy foydali mehnat-----soat 9.30- 12.00

Cho'milish----- soat 12.30-14.00

Tushlik ovqatlanish-----soat 14.00-14.30

Tushlikdan keyingi dam olish-----soat 14.30-16.00

Turizm va o'lkashunostlik mashqlari-----soat 16.00-17.00

Sport o'yinlari musobaqalari -----soat 17.00-19.00

Kechki ovqatlanish-----soat 19.00-19.30

Kechki yig'in-----soat 22.00-22.15

Uxlash-----soat 22.30.

Xulosa qilib aytganda oromgohlarda musobaqalar tashkil qilish va o'tkazish jarayonida qobiliyatli, iqtidorli bolalarni aniqlay oladigan mustaqil fikrga ega, vatanparvar hamda xalqimizga sadoqatli farzand etib tarbiyalashda yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarning o'z o'rnini bor.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti 2017 yil 3 iyundagi O'zbekiston Respublikasida "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-3031 son qarori.
2. "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2018 yil 5-mart.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni 1997y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 1997y
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining " Respublika Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik Markazining faoliyatini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori 26 aprel 1993y.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yosh avlodni sog'lomlashtirish muammolarini har tamonlama hal qilish to'g'risida"gi qarori 3 dekabr 1993y.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida"gi farmoni 10 oktyabr 1997y.
8. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligini "Yozgi sog'lomlashtirish oromgohlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha" metodik qo'llanma. T. 2013y.
9. "Sog'lom avlod tarbiyas" - buyuk davlat qurish zaminidir. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 1-2 qism. T. Uz DJTI nashriyoti. 1994y.
10. Hamroqulov A.Q Nasriddinov F.I va boshqalar "O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida xalq harakati va sport o'yinlari bayramlarini tashkil qilish va o'tkazish". T. O'zDJTI nashriyoti .1992y.
11. "Voleybol" L.R.Ayrapetyans, A.A.Pulatov, Sh.X.Isroilov Oliy o'quv yurt talabalari uchun Toshkent 2009g
12. Sh.X.Isroilov "Voleybol" Olimpiya zaxiralari kollej talabalari uchun o'quv qo'llanma. Tasvir nashriyoti 2008y
13. "Волейбол" Л.Р.Айрапетянц Ташкент 2006 г.
14. Ю.Д.Железняк, Л.Р.Айрапетянц, М.П.Пименов, В.А.Кунянский

(Массовый волейбол) Ташкент 1994 г.

15. «Волейбол в школе» В.А.Голомазов, В.Д.Ковалёв, А.Г.Мельников  
Москва 1976г.

16,А.Х.Абуков «Туризм сегодня и завтра» Москва 1978г

17. В.Nigmanov,F.Xo'jayev, K.Rahimqulov “Sport o'yinlari” Toshkent 2007y

18.L.R.Ayrapetyans, A.A.Pulatov “Voleybol nazariyasi va uslubiyati”  
Toshkent-2012y.

19. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligini Voleybol bo'yicha sport  
to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan metodik tavsiyalar. Toshkent-  
2011y.

20.O'zbekiston voleybol federatsiyasi “Voleybolning rasmiy qoidalari”  
Toshkent-2010y.

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH: ishning dolzarbligi, ob’ekti, predmeti, uslubiy uslubiyoti, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, ishning amaliyotga qo’llash darajasi va tarkibiy hajmi.....</b>	<b>11-15 bet.</b>
<b>I Bob O’zbekistonda voleybol o’yining tutgan o’rni.....</b>	<b>16 bet.</b>
<b>11. O’zbekiston voleybol Federatstiyasi, uning tarkibi va ish funkstiyalari .....</b>	<b>16-20 bet</b>
<b>1.2.Voleybol o’yinii musobaqa qoidalari, uni tashkil qilish va o’tkazish.....</b>	<b>21-32 bet</b>
<b>1.3.Voleybol o’yinii bo’yicha yozgi dam olish oromgohlarda mashg’ulotlarni tashkil etish.....</b>	<b>33-43 bet</b>
<b>II.Bob Bolalarning dam olishini tashkil qilish va sog’lomashtirish.....</b>	<b>44-45 bet</b>
<b>2.1.Oromgohlarining faoliyatining asosiy tamoyillari.....</b>	<b>46-53 bet</b>
<b>2.2.Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog’lomashtirish.....</b>	<b>54-65 bet</b>
<b>2.3. Yozgi ta’tilda sport musobaqalarini o’tkazish.....</b>	<b>66-82 bet</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>83-84 bet</b>
<b>Foydalangan adabiyotlar.....</b>	<b>85-86 bet</b>